O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**M.X.Shamsiyeva, B.S.Talabjonov**

# Farg‘ona vodiysida madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning turizm industriyasidagi o‘rni

**(2016-2020-yillar)**

**FARG‘ONA – 2022**

**Farg‘ona vodiysida madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning turizm industriyasidagi o‘rn (2016-2020-yillar)- Farg‘ona, 2022.**

Monografiya Farg‘ona davlat universiteti Ilmiy Kengashi tomonidan 2022 yil 14 – oktyabrdagi navbatdan tashqari yig‘ilish bayonnomasi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan.

.

**Mas’ul muharrir:**

**M.Isomiddinov**
Tarix fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar**:

**M.F.Rasulov**
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**M.Sh.Mansurov**
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Monografiyada yurtimizda mavjud bo‘lgan tarixiy-madaniy yodgorliklar (arxeologiya obyektlari, me’moriy inshootlar va boshqalar) ni saqlash, muhofaza qilish, ulardan ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda hamda madaniy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanishning ahamiyatli jihatlari tahlil etilgan. Kitob “Tarix” yo‘nalishi talabalari, “O`zbekiston tarixi” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistrantlar, gid va tarjimonlik yo‘nalishi talabalari hamda keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

## So‘z boshi

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'naviy islohotlar milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, targ‘ib qilinishida va har tomonlama rivojlanishiga asosiy omil vazifasini bajarmoqda. Shu bilan birga ushbu jarayonlar uzoq va yaqin tarixiy o‘tmishni haqqoniy o‘rganish, bo‘lib o‘tgan voqea, hodisalami xolis anglash, ularni kelgusi avlodga yetkazib berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston o‘z erkinligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, tarixan shakllangan qadriyatlar va madaniy merosga bo‘lgan qarash davlat siyosatining bir bo‘lagiga aylanib, ularga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Xususan, tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrash, qayta tiklash va konservatsiya qilish hamda ulardan foydalanish borasida keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, “tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va kelajak avlodga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri”[1] sifatida e’tirof etilmoqda.Yurtimizda mavjud bo‘lgan tarixiy-madaniy yodgorliklar (arxeologiya obyektlari, me’moriy inshootlar va boshqalar)ni saqlash, muhofaza qilish, ulardan ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda hamda madaniy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanish alohida ilmiy yondashuvni talab qiladi. Hozirgi davrida moddiy va ma'naviy merosimizni asl mohiyatini o‘rganishga yurtimiz aholisining qiziqishining ortishi, xususan, o`z o‘tmishimizning bebaho tarixini o‘zida jamlagan moddiy-madaniy meros obyektlarini ilmiy o‘rganish, Respublikada moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilshga ma’sul tashkilotlari faoliyatining ijobiy tajribasini umumlashtirish ehtiyojini oshirdi. Turizm hamda sayyohlarga xizmat ko‘rsatishning kundan-kunga rivojlana borishi asnosida oxirgi yillarda uning yangi yo`nalishlari turlari – ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, ziyorat turizmi, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladi.

[1] Мирзиёев Ш.М. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. ИҲТ Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимида сўзлаган нутқи // https://uz24.uz/politics/

E'tiborlisi, mazkur yo‘nalishlar sohaga aloqador tadqiqot guruhlari tomonidan shiddat bilan rivojlanayotgan sohalar sifatida e'tirof etilmoqda.

Birinchidan, tarixiy madaniy meros obyektlari nafaqat o‘tmishni ko‘rsatib beruvchi ma'lumotlar majmuasi bo‘lishdan tashqari, ulardan mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishda foydalanashimiz mumkin. Shu sababli, ilmiy izlanishlar darajasi ma'lum ma'noda madani meros obyektlarining turistik imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish bilan uzviy bog‘liqdir.

Ikkinchidan, mustaqillikka qadar sovet davrii ijtimoiy-siyosiy sharoitida O‘zbekistonda moddiy-madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashga jiddiy e`tabor berilmadi. Ilmiy o‘rganishga, tarixiy dalillarni xolislik bilan o‘rganishga hamda xalqimizning milliy urf-odatlarini to‘g‘ri talqin qilishga o‘sha davridagi siyosiy holat imkon bermagan.

Uchinchidan, mustaqillik davriining dolzarb vazifalaridan biri moddiymadaniy meros obyektlarini ilmiy asosda o‘rganib ularning asl bahosini berish zaruriyatini keltirib chiqardi. Hozirgi kunda kunda madaniy merosini obyektlari xalqimiz ma'naviy boyligini saqlovchi markazi sifatida o‘rganilishi, ularning davlat hamda xalq hayotidagi ahamiyatini tushunib yetish va ko‘rsatib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Tarixiy moddiy-madaniy yodgorliklar xalqmiz ma'naviy bilimini oshirishning muhim omili hamda ma'naviy-axloqiy taraqqiyotining kalitlaridan biri sifatida muhim vazifani bajarmoqda. Shu ma'noda, birinchi prezident I.A.Karimov asosli ravishda ta'kidlaganidek: “O‘z tarixini biluvchi va undan ma'naviy ozuqa olib turuvchi xalqni mag‘lub qilib bo‘lmaganidek, o‘zimizning haqiqiy tariximizni tiklashimiz va bu bilan millatni qurollantirmog‘imiz zarur”[2].

O‘zbekiston Respubiikasi mustaqillikka erishgan hozirgi sharoitida jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan, madaniy yodgorliklarni asrash sohasida ham tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda modiy-

---

[2] Karimov I. A. O’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. J. 7. – T.: O’zbekiston, 1999. – B. 146.

madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni tashkil etish, boshqarish, ularni kategoriyalar  jamlash, butlash, ulami saqlash, hujjatlardan foydalanishni tashkillashtirish va boshqa bir qator ishlar tartib-qoidalarini o‘zida aks ettirgan qonunlar va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarni amalga tadbiq etilishi soha rivojini ta'minlashda xizmat qiladi.

Shuningdek, madaniy meros yodgorliklarining holati va ularning muhofaza etilishi vakolatli davlat organlari tomonidan ishlab chiqarilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida barcha viloyatlarda tashkil etilishi va rivojlantirilishi masalalarini o‘rganish sohasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek xalqining haqiqiy o‘tmishini tiklashda madaniy meros obyektlarining ahamiyati kattadir. Ilgari o‘rganilmagan, sobiq sovet davriida boshqa maqsadlarda foydalanilgan madaniy meros obyektlari, ulardan tarixni kengroq anglash va turizm maskani sifatida foydalanishni yo‘lga qo‘yish o‘z yechimini kutayotgan masalalarni yoritish mavzuning dolzarbligini oshiradi. Mustaqillik yillarida Respublikamizda ko‘plab madaniy meros obyektlari ro‘yxatga olingan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining tegishli davlat organlari tomonidan muhofazaga olingan.Farg‘ona vodiysida ham madaniy meros obyektlarining soni salmoqli. Keyingi davrilarda ularning miqdori arxeologik va ilmiy tadqiqotlar natijasida ortib bormoqda.

Ushbu kitobda mustaqillik yillarida Farg`ona vodiysida moddiy-madaniy meros obyektlarini turizm maskaniga aylantirishda ro‘y bergan o‘zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- istiqlol yillarida tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash, ulardan foydalanish huquqiy asoslarining yaratilish jarayoni va klassifikatsiyasini o‘rganish va tahlil qilish;
- 2016-2020- yillarida tarixiy va madaniy yodgorliklarni tiklash hamda saqlash borasida amalga oshirilgan ishlar dinamikasini aniqlashtirish va tahlil qilish;  tarixiy va madaniy yodgorliklardan ma'naviy-ma'rifiy

maqsadlarda foydalanishning shakl va usullarini o‘rganish hamda tahlil qilish;

- tarixiy-madaniy yodgorliklarning ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatib berish hamda bu sohadagi yutuq va muammolarni aniqlash.

**Mazkur monografiyaning xronologik chegarasi** yurtimizda keng islohotlar davrii, ya’ni 2016-2020-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrida O‘zbekistonda boshqa sohalar kabi madaniy meros yodgorliklarini asrab-avaylash sohasida ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Istiqlolning dastlabki yillarida kuzatilgan iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar, respublika hukumati hujjatli merosni saqlashga, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga doimiy e’tibor qaratdi. Bu ishlarning natijasi o‘laroq, o‘tgan yillar mobaynida O‘zbekistonda madaniy meros yodgorliklarini asrab-avaylash sohasi yangi pog‘onaga ko‘tarildi, tarixiy yodgorliklarni saqlash va ulardan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanishda pozitiv o‘zgarishlar ro‘y berdi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish muammolari bo‘yicha G.A.Pugachenkova, N.B.Nemtseva, A.Haqqulov, P.Sh.Zohidovlar tomonidan qator ilmiy asarlar[3] yaratildi. Shuningdek, M.A.Mirzayev, X.S.Islomxo‘jayev, M.Sh.Mansurov, M.F.Rasulovlarning ilmiy-tadqiqot ishlari[4] ham yurtimizdagi tarixiy-madaniy yodgorliklar va ularni muhofaza etish, turizm maskani sifatida foydalanish

---

[3] Пугаченкова Г.А.,Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент, 1958; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – Ташкент, 1960; МавзолейАраб-ата. (Из истории архитектуры Мавераннахра IX–X вв.). – Ташкент, 1963, Немцева Н.Б.,
Шваб Ю.З. Ансамбль Шах-и-Зинда. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1979; Её же. Шахи Зинда: альбом. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, Ҳаққулов А. Тарихий ёдгорликларни таъмирлаш. –Тошкент, 1983; Зоҳидов П.Ш. Традиции народных зодчих Узбекистана. – Москва, 1964;

[4] 7Мирзаев М.А. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917–1941 йиллар). Т.ф.н. дисс. – Тошкент:1994: Исламходжаев Х.С. Государственное управление в области охраны и использования памятников истории и культуры Узбекситана. Дисс. к.ю.н. – Ташкент, 1998; Mansurov M.Sh. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980 -2018 й).Avtoreferat. – T., 2020. – B.50; Rasulov M. F. O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo‘lgan munosabatning transformatsiyasi(1980-2019-yillar) tarix falalri bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2020. – B.10; Rasulov M. F. O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo‘lgan munosabatning transformatsiyasi(1980-2019-yillar) tarix falalri bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati –Toshkent, 2020. – B.54.

muammolariga qaratilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumatining madaniy-ma'rifiy sohalarda olib borayotgan faoliyati xalqaro maydonda e’tirof etildi. Respublikadagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni tadqiq qilish va dunyo ilm ahliga yetkazishda xorijiy tadqiqotchilarning asarlari ham muhim ahamiyatga ega. Bular jumlasiga A.A.Bennigsen, S.M.Gorshenina (O‘zbekistonda tug‘ilib-o‘sgan va 1996 yilda tarix fanidan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, hozirda Frantsiyada yashab, ilmiy-tadqiqotlar olib boradi – R.M.), Frederik Bopertyui-Bressand, Klod Rapin[5] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Yuqoridagi tadqiqotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlaridan, jumladan Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qarorlar, Madaniyat vazirligi tomonidan chiqarilgan nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalar, Farg‘ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi joriy arxivi, Farg‘ona viloyati Turizm Bosh boshqarmasi joriy arxivlari, madniy meros obyektlarining rasmiy veb saytlari, sohaga oid ilmiy maqolarlar, ilmiy ishlar va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan ko‘rsatuvlar tadqiqot uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur kitob yosh tadqiqotchilarda, bakalaviriat va magistraturada tahsil olayotgan talabalar hamda barcha tarix ixlosmandlarida qiziqish uyg‘otadi, degan umiddamiz.

---

[5] Rasulov M. F. O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo‘lgan munosabatning transformatsiyasi(1980-2019-yillar) tarix falalri bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. –Toshkent, 2020. – B.8

# I.Bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarning muhofazaga olinishi.

## 1.1. O‘zbekistonda moddiy-madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishining huquqiy asoslarining yaratilishi

Dunyo xalqlari o‘z tarixini o‘rganish davomida tarixiy manbalarga , tarixiy shaxslarning faoliyatiga va moddiy - manaviy yodgorliklarga murojat qiladilar. Moddiy - manaviy yodgorliklar insoniyat tarixining tilsiz guvohlaridir. Shunday ekan, moddiy va yozma manbalarning hozirgi davriga qadar qanday holatda yetib kelganligi uning tarixiy ahamiyatini oshiribgina qolmasdan, balki har bir mamlakatning turizm industriyasini rivojlanishida ham alohida o‘rin tutadi.

Sobiq mustabid tuzum davrii mafkurasi asosida milliy ma’naviyatni rivojlantirishga, moddiy - ma’naviy yodgorliklarni keng miqyosda o‘rganishga deyarli umuman yo‘l qo‘yilmagan[6]. Sobiq sovet ittifoqi davriida ham tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylashga doir ko‘plab me`yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, ammo ularning deyarli katta qismi amaliyotga tadbiq etilmagan. Natijada tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarni asrash o‘rniga ulardan “ishlab chiqarish vositalari” sifatida foydalanish holatlari ro‘y berdi. Bu esa tarixiy va moddiy-madaniy yodgorlikning holatining salbiy ko`rinishga ega bo`lishiga, tarixiy qadr-qimmati va tarixiylik holatini yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish uchun davlat tomonidan kommunikatsiyalar, yangi texnologiyalarni rag‘batlantirish muhim hisoblanib, bu borada ishlar bosqichma-bosqich olib borilgan. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Farmoni asosida “O‘zbekistonning qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to‘g‘risida”gi 1990-yil avgust oyida qabul qilingan davlat dasturi qishloq joylarida ijtimoiy muammolarni hal etishning muhim omili, aholini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish asosi bo‘ldi.Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq

---

[6] Каримов И. А Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – В.3.

bu sohadagi ahvolni tubdan o‘zgartirish mamlakatimizda eng asosiy va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ularning huquqiy tizimlari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining bosh qomusi Konstitutsiyasiyaning 49-moddasida  Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini asrab – avaylashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo‘yildi. Ushbu modda asosida ko`plab  huquqiy normativ hujjatlar qabul qilindi. Tarixiy madaniy yodgorliklarga doir qonunchilik hujjatlari xalqaro huquq normalariga mos ravishda ishlab chiqildi va sohaga tegishli ko‘plab xalqaro shartnoma, Konvensiyalar Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilindi. Jumladan, 1993-yilda “Madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish umumjahon Konvensiyasi”ga, 1996-yilda “G`arbiy mojarolar vaqtida madaniy boyliklarni muhofaza qilish haqida”gi Gaaga konvensiyasiga qo‘shildi [7].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 31-avgustdagi “Alohida korxonalar va mol-mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirshning ba’zi masalalari” to‘g`risidagi qaroriga asosan, tarixiy, ma’naviy va madaniy meros obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiylashtirilish va sotib olish mumkin bo‘lmagan mol-mulklar qatoriga kiritildi. Ushbu qaror tarixiy, ma’naviy va madaniy meros obyektlarining doimiy davlat nazoratiga olinishi uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda[8]. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g`risidagi va Jinoyat Kodekslarida ham  moddiy va ma’naviy obyektlarni muhofaza qilishga doir javobgarlik belgilab qo‘yildi. Xususan, Ma’muriy javobgarlik kodeksining 64-moddasiga ko‘ra, Moddiy - madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Jinoyat Kodeksining 132-moddasida esa, davlat muhofazasiga olingan moddiy - madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish

---

[7] https://lex.uz/docs/-2749728\\ konvensiya: Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to`g`risida
[8] https://lex.uz/ru/docs/-446247\\O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 04.12.01995-yildagi 448-son

yoki ularga shikast yetkazish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash midorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltimish soatgacha majburiy jamoat ishlari yohud uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilab qo‘yilgan[9]. Qonunlarimizda bu ko`rinishdagi javobgarlik choralarining belgilab qo‘yilishi tarixiy ,ma’naviy va moddiy obyektlarni yo`q bo`lib ketishi yoki shikast yetishining oldini olishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 1992 yil 20 oktyabrdagi 484-sonli qarori asosida Milliy kompaniyasining asosiy vazifasi etib, mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy sarmoyani jalb qilib, zamonaviy turizm komplekslarini barpo etish, yangi turizm yo‘nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish kabi vazifalar belgilandi. Sayyohlar uchun turizm sohasi rivojlantirishda “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi tomonidan ko‘proq an'anaviy turizm tarmoqlariga e'tibor berilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi sohaning yangi tarmoqlarni rivojlantirish uchun loyihalar ishlab chiqishda halq xo‘jaligini barcha tarmoqlarini qamrab ola boshladi. Bu kabi islohotlar ekoturizmni rivojlantirish orqali taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida o‘rin egallashida muhim ahamiyatga ega bo‘la boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi to‘rt yillik faoliyati davomida turizm sohasini iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish maqsadida o‘z vakolatlari doirasida qaror qabul qilish orqali davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bordi. Jumladan, mamalakatda ekoturizmni rivojlantirish, hududlarda ekoturistik ob'ektlardan samarali foydalanish, ularni asrab-avaylash va saqlash bo‘yicha tartiblar, yo‘riqnomalar ishlab chiqilib, hamkorlikda doimo nazorat qilib borilgan. Bu borada ekoturistik obyektlarga kirish-chiqish, transport vositalarining harakati tartibga solingan 2001-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasining

---

9 https://www.lex.uz/acts/111453\\O`zbekiston respublikasi Jinoyat Kodeksi

“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g`risida”gi qonunining qabul qilinishi xalqimizning umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonun VII bob, 36 moddadan iborat bo‘lib, qonunning maqsadi, moddiy madaniy meros obyektlarining toifalari, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi, madaniy meros obyektlarini asrash, moddiy madaniy meros obyektlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish, alohida muhofaza qilinadigan tarixiy - madaniy hududlar va yana bir qancha maslalarni o‘z ichiga oladi[10]. Ushbu qonun asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2002-yil 29-iyulda 269-sonli Qarori tasdiqlanib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Madaniy yodgorlikllar ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi”ga aylantirildi. 2018-yil 19-dekabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirsh chora-tadbirlari to‘g`risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4068-son qaroriga muvofiq Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti faoliyati yo`lga qo`yildi. Moddiy-madaniy meros departamenti har bir viloyatda o‘z bo‘limlariga ega bo‘lishi hududlardagi tarixiy madaniy yodgorliklarning saqlanishi va turizm infratuzilmasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Farg`ona viloyati madaniy meros departamenti tomonidan viloyat miqyosida 376 ta obyektlar madaniy meros obyektlar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ularning 117 tasi arxeologiya,139 tasi arxitektura, 32 tasi monumental va 88 tasi diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi[11]. Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 30- martdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha

---

[10] https://lex.uz/docs/-25461?otherlang=1\Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonuni. 30.08.2001

[11] Фарғона вилояти маданий мерос бошқармаси томонидан 2020 йилнинг январ-ноябр ойлари давомида амалга оширилган ишлар тўғрисида маълумот. 2020 йил. Жорий архив.

jamoatchi inespektorlar faoliyatini tashkil etish to‘grisida” gi 265-son qarori asosida “Mahalla” hayriya jamoat fondi bilan hamkorlikda Nizom qabul qilindi. Nizomga ko‘ra, yurtimizdagi deyarli barcha moddiy madaniy meros obyektlarining har biriga ixtiyorilik va tanlov asosida jamoatchi inspektorlarning tayinlanishi tarixiy madaniy meros obyektlarini muhofaza etilishida yangicha tizim yaratilganini anglatib turibdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda jami 8208 ta ko‘chmas mulk obyekti mavjud bo‘lib, ulardan 4748 tasi arxeologik yodgorliklar, 2250 tasi – me`moriy yodgorliklar, 678 tasi- monumental san`at yodgorliklari hamda 532 tasi diqqatga sazovor joylardir.[12] Tizimdagi islohotlar negizida O‘zbekistonda joylashgan arxeologik va me`moriy yodgorliklar turizm industriyasi bilan bog`liq holda ochiq osmon ostida muzelar tashkil etish yo‘lga qo‘yilmoqda. Jumladan, qadimgi Axsikent yodgorliklari “YUNESKO” tomonidan muhofaza qilinadigan , umumjahon ahamiyatiga molik muhim madaniy meros maskani hisoblanadi. Bu yodgorlikning madaniy qatlamlarida Farg`ona xalqlarining 2,5 ming yilga yaqin hayoti va madaniyatiga oid bebaho ma’lumotlar beruvchi tarixiy obidalar yashiringan. 2015-yil noyabrda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov Namangan viloyatida bo‘lib o‘tgan yig`ilishda “Axsikent yodgorligini turizm manzilgohiga aylantirsh g`oyat dolzarb masala ekanligini” alohida ta’kidlab o‘tgan edi. Prezident ma’ruzasidan so‘ng, Axsikent yodgorligini o‘rganish va mukammal tarixini yaratish, uni nafaqat respublikamiz ahli, balki xorijiy sayyohlarga ham namoyish etish holatiga keltirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev topshirig`iga muvofiq Axsikent tarixiy yodgorlikni tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo‘yicha ulkan ishlar boshlandi.[13] “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi” unitar

[12] https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/madaniy_meros_obektlarini_qayta_hisoblab_chiqishdi
[13] https://www.gazeta.uz/oz/2019/02/28/axsikent/

korxonasi tashkil etildi. Shuningek, Axsikent yodgorligida olib boriladigan arxeologik o‘rganishlarni va ilmiy tadqiqotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Axsikent maxsus jamg`masi” tuzildi. Ushbu jamg`arma Axsikentdan chiqqan olimlarning dunyo muzey va kutubxonalarida saqlanayotgan kitoblarni olib kelish, u yerga borib ularni tarixini o‘rganish bo‘yicha qilinadigan ishlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, moddiy madaniy meros obyektlarini har tomonlama muhofaza qilish xalqning o‘timishini ko‘rsatib turish bilan birgalikda o‘sib kelayotgan yosh avlod xotirasida ajdodlarga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirib, ularga nisbatan faxr tuyg`usini uyg`otadi. Shuningdek, yer yuzining ko‘plab mamlakatlariga ulkan miqdorda daromad olib kelayotgan turizm yo‘nalishlaridan biri tarixiy moddiy madaniy inshoatlarni ko‘rish sohasi hisoblanadi. Respublikada so‘nggi yillarda rivojlanayotgan ichki va tashqi turizm ham asosan tarixiy madaniy moddiy yodgorliklar mavjud bo‘lgan hududlarda sayyohlarning ko‘pligi bilan ajralib turibdi. Hozirgi kunda mamlaktda mavjud bo‘lgan barcha madaniy meros obyektlarini sayyohlarni jalb qila oladigan infratuzilma va imkoniyatlar mavjud emas. Lekin, sohaga doir qabul qilinayotgan qonunlar, qonun osti hujjatlari hamda madaniy meros boshqarmasi tomonidan tuzilgan dasturlar asosida ularni muhofaza qilish va sayyohlarni jalb qilish imkoniyati yanda oshmoqda. Sohada qilinayotgan bu ishlar madaniy meros obyektlarini yana ko‘p yillar davomida yurtimiz o‘tmishidan guvohlik berib turishini ta’minlaydi

## 1.2. Andijon, Farg`ona va Namangan viloyatlarida madaniy meros boshqarmasi faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi

O‘zbekiston xalqining tarixiy ma’naviy-moddiy boyligi hisoblandigan yodgorliklarni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish va ulardan foydalanish borasida yurtimizda keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom

musiqasi”, “Navro‘z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an’analari” nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga, Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo‘la oladi. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi va O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi.Shu bilan birga, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun mas’ul organlarning tuzilmasi sohada davlat nazoratini samarali tashkil etish imkoniyatini to‘laqonli bermadi.Sohada fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etishda fan va innovatsion texnologiyalar yutuqlarini keng miqyosda tadbiq etmaslik oqibatida, restavratsiya-tiklash ishlari moddiy madaniy meros obyektlarining noyobligini saqlab qolishga salbiy ta’sir ko‘rsatib keldi. Moddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ilmiy tomondan o‘rganish, ulardan odilona foydalanish va yurtimizning turizm salohiyatini oshirishda ularning o‘rni va ahamiyatini oshirish hamda moddiy madaniy meros sohasidagi davlat nazoratini tubdan takomillashtirish maqsadida so‘nggi yillarda sohada ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Respublikada madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi 2001-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g`risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida keltirilgan[14]. Mustaqillik yillaridan boshlab shu kunga qadar madaniy meros obyektlarini to‘g`ridan-to‘g`ri muhofaza qilish va ulardan foydalanish bir qancha tashkilotlar

[14] https://lex.uz/docs/-25461

zimmasiga yuklatildi. Xususan, 2002-yilgacha Madaniy yodgorliklar ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi tomonidan soha faoliyati olib borilgan bo‘lsa, 2002-yil 29-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida Madaniy meros byektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmi-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi tashkil etilishi bilan tizim yangi bosqichga o‘tdi. Vaqt o‘tgan sayin har bir sohaga yangi ilmiy texnikalar, metodlar va inovatsion g`oyalar kirib kelishni boshlaydi. Shu va boshqa omillar sababli madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash va ulardan foydalanishda yangi tizimga o‘tish zarurati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti. Departamentning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: moddiy madaniy meros, shu jumladan, arxeologiya merosi obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga doir qonun hujjatlariga rioya etilishi bo`yicha davlat nazoratini amalga oshirish; moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritish, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan obyektlarni aniqlash, ularni hujjatlashtirish va davlat hisobiga olish, moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari toifalari va qo‘riqlanadigan hududlarni ajratib qo`yish, shuningdek, ulardan samarali foydalanilishini ta’minlash; tarixiy-madaniy va loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizasini, moddiy madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy qimmati va noyobligiga asrashga oid ishlarni zarar yetkazmagan holda amalga oshirilishi bo‘yicha doimiy ilmiy-texnik nazoratni olib borish; alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy va jahon madaniy merosi obyektlari safiga kiritilgan hududlarda shaharsozlik va boshqa xo‘jalik faoliyatlarini ularning tarixiy-madaniy muhiti, tabiiy landshafti va o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda olib borilishini muvofiqlashtirish; arxeologiya ashyolari davlat katalogini yuritish, arxeologiya tadqiqotlarini olib boorish jarayoni va shartlariga amal qilinishi, arxeologiya ashyolarining o‘z vaqtida hisobga olinishi va davlatga

topshirilishini nazorat qilish hamda ularni fan, madaniyat va ta’lim muassasalari bilan faoliyatini tashkillash, shuningdek, arxeologiya tadqiqotlari bo‘yicha ilmiy hisobotlarni qabul qilish, ekspertizadan o‘tkazish va arxivini yig‘ish, arxeologiya yodgorligini konservatsiyalash hamda muzeylashtirish va boshqa ko‘plab funkiyalarni bajarish uning vazifalariga kiritilgan.

Globallashuv davrida va dunyoda pandemik holatning yuzaga kelishi turizim sohasiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Buning oqibatida turizm industriyasi yangi imkoniyatlar va o‘zgacha takliflarni kuta boshladi. O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirishda yangi istiqbolli rejalar amalga oshirish boshlandi. Xususan, yurtimizning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob va nodir madaniy merosini asrab-avaylashni kuchaytirish, sohani raqamlashtirish, innovatsion rivojlantirish va moddiy-texnika imkoniyatlarini mustahkamlash, jahonning ilg‘or tajribalarini samarali qo‘llash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6199-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi. Moddiy madaniy meros obyektlarini topish, hisobga olish, muhofaza qilish, targ‘ib etish, davlat reyestri, elektron katalogi, pasporti va davlat kadastrini yuritish, qo‘riqlanadigan hududlarni belgilash hamda sohada davlat nazoratini yo`lga qo`yish. Moddiy madaniy meros obyektlaridan samamrali foydalanish, shu jumladan ularni davlat-xususiy sheriklik asosida oqilona boshqarish, sohani raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalari faoliyatini yo`lga qo`yish etish. Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarida asrashga oid ishlarni amalga oshirish, buyurtmachi vazifasni olib borish, doimiy ravishda ilmiy-texnik nazorat qilish, tarixiy-madaniy ekspertiza va loyiha-smeta hujjatlarining tarixiy-madaniy qimmatga ta’siri bo‘yicha ekspertizasini amalga oshirish va tizimga oid shu kabi vaziflar kiradi.

Umuman olganda O‘zbekiston Respublikasida moddiy madaniy meros obyektlarining tarixiylik jihatini hisobga olgan holda turistik makonga aylantirish bo‘yicha qilinayotgan ishlarni tahlil va mulohaza asosida o‘rganishni Farg`ona viloyati misolida o‘rganishga harakat qildik.

Hozirgi kunda yurtimizda 8210 ta madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari davlat muhofazasiga olingan[15]. Farg`ona viloyatida esa 376 ta obyektlar kiritilgan bo‘lib, ularning 117 ta arxeologiya, 139 ta arxitektura, 32 ta monumental va 88 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etmoqda[16].

Obyektlarning 131 ta Respublika va 245 ta mahalliy axamiyatga ega ob'ektlar. 336 ta viloyat madaniy meros boshqarmasi tasarrufida, 33 ta boshqa tashkilot va idoralar balansida va 8 ta xususiy mulk hisoblanadi.

Obyektlarning 41 ta O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-F-son farmoyishiga asosan “Vaqf” xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida, 27 ta rasmiy masjidlar sifatida O‘zbekiston Musulmonlar idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi tomonidan, 32 ta monumental yodgorliklari mahalliy hokimliklar tomonidan, 22 ta turli tashkilot va idoralar tomonidan tekin foydalanish shartnomalari asosida, 231 ta Farg‘ona viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida va 8 ta xususiy mulk sifatida foylanilib kelinmoqda.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan unumli foydalanish, loyihalash va restavratsiya ishlarida davlat nazoratini zamon talablari asosida qayta tashkil qilish taqozo etadi. Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 19- dekabr kuni “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[17] qarorning qabul

---

[15]https://xs.uz/uz/post/moddij-madanij-meros-obektlariga-zarar-etkazgan-shakhslarga-nisbatan-zhazo-choralari-kuchajtirilmoqda

[16] Фарғона вилояти маданий мерос бошқармаси томонидан 2022 йилнинг январ-март ойларида амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот. 2022 йил. Жорий архив

[17] https://lex.uz/docs/-4113465

qilinishi ushbu sa'y-harakatlar yoʻnalishida muhim qadam boʻlib, unda muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari batafsil koʻrsatib berildi.

Ushbu Qarorga muvofiq Madaniyat vazirligining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi hamda uning mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspektsiyalari negizida Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti uning hududiy boshqarmalari, shu jumladan, Fargʻona viloyat Madaniy meros boshqarmasi tashkil etildi. Fargʻona viloyat Madaniy meros boshqarmasi viloyatdagi barcha moddiy madaniy meros, xususan, arxeologiya merosi obyektlarini asrab-avaylash va ulardan foydalanish borasida maxsus vakolatli muassasa ekanligi belgilab qoʻyildi.

Fargʻona viloyati Madaniy meros boshqarmasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi "Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida" gi 265 – son qarori bilan tasdiqlangan qator me'yoriy-hujjatlar asosida oʻz faoliyatini boshladi.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan "Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish boʻyicha jamoatchi inspektorlar faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi NIZOM ga asosan viloyatdagi 365 ta obyektlarning har biriga ixtiyoriylik va tanlov asosida joylardagi mahalla fuqarolar yigʻinlari kengashlarining qarorlari bilan jamoatchi inspektorlarning nomzodlari tasdiqlandi, 310 ta muhofaza qilish va saqlash shartnomasi imzolandi.

Yuqoridagi qarorlar hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida" gi PQ-4038-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2019-2020-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini Fargʻona viloyatida amalga oshirish boʻyicha Chora-tadbirlar dasturi" hamda viloyat hokimining 2019-yil 3-

dekabrda qabul qilingan 601-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatdagi barcha madaniy meros ob'ektlarining kadastr xujjatlarini rasmiylashtirish va davlat ruyhatidan o‘tkazish bo‘yicha mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda muayyan ishlar amalga oshirildi. 2019-yilning o‘tgan davrii mobaynida 244 ta madaniy meros obyektlarining bino-inshootlari va egallab turgan yer uchastkasi bilan birgalikda Madaniy meros boshqarmasi tasarrufiga tegishli qaror bilan egalik huquqi tasdiqlanib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirildi[18].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2019-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini Farg‘ona viloyatida amalga oshirish bo‘yicha Chora-tadbirlar dasturi”ga asosan sayyohlar tashrif buyuradigan obyektlarga turniket hamda o‘zbek, rus va ingliz tillarida yo‘l ko‘rsatkichlarini o‘rnatish belgilangan. Ushbu qarorga asosan  joylardagi 204 ta moddiy madani meros ob'ektlariga muhofaza belgisi o‘rnatilib, 146 ta yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatildi. 9 obyektlarga WI-FI va audiogidlar va 2 ta ob'ektga elektron hisoblash uchun turniket moslamasi o‘rnatildi. Bundan tashqari  Marg‘ilon shahridagi “Erkin Vohidov memorial” muzeyiga AG soolai-600 rusumli 30 dona, Qo‘qon shahar madaniyati tarixi davlat muzeyiga 9 ta oby'ekt bo‘yicha - Qo‘qon madaniyati tarixi davlat muzeyi hamda uning filiallari: Hamza uy-muzeyi, Amaliy san'at muzeyi, Muqimiy hujra muzeyi, Buyuk allomalar muzeylarida, Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasi tarkibiga kiritilgan Dasturxonchi madrasasi, Norbo‘tabiy madrasasi, Dahmai Modarixon majmualarida hamda shahardagi tarixiy obidalar Dahmai Shoxon va Hojibek madrasalarida Smail Hengda rusumli 30 dona audiogid moslamalari o‘rnatildi. Audiogid moslamalari 7 ta jahon tillariga dasturlashtirilgan bo‘lib, bir guruh (60 nafar tomoshabin) uchun 50 dan ortiq mavzudagi bo‘limlarni hikoya qilib beradi.

[18] Жорий архив, Фарғона вилояти маданий мерос бошқармаси томонидан  2022 йилнинг январ-март ойларида амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳ и с о б о т.  2022 йил

Hozirda viloyatning boshqa muzeylar hamda madaniy meros ob'ektlari uchun ham audiogidlar va 2 ta turniket moslamasi oʻrnatish ishlari rejalashtirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son qaroriga muvofiq, shuningdek Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Fargʻona viloyatlaridagi moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, tevarak atrofidagi tarixiy muhiti bilan birga asrash va ulardan oqilona foydalanish maqsadida “Qoʻqon” davlat muzey-qoʻriqxonasi Fargʻona viloyatidagi Qoʻqon madaniyati tarixi davlat muzeyi negizida tashkil etilishi belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-son qarori bilan “Qoʻqon” davlat muzey-qoʻriqxonasi – Fargʻona viloyatidagi Qoʻqon madaniyati tarixi davlat muzeyi negizida tashkil etilishi ta'kidlanib, “Qoʻqon” davlat muzey-qoʻriqxonasi ijara haqining “nol” stavkasiga asosan biriktiriladigan moddiy madaniy merosning koʻchmas mulk obyektlari Xudoyorxon oʻrdasi, Jome’ masjidi, Sobiq davlat banki binosi, Miyon Hazrat madrasasi, Norboʻtabek madrasasi, “Modarixon” maqbarasi, “Daxmai Shaxon” maqbarasi hamda Tepaqoʻrgʻon arxeologik yodgorligi roʻyhati tasdiqlandi.

Ushbu qarorga asosan Fargʻona viloyatidagi Quva shahristoni arxeologiya yodgorligini ishonchli muhofaza qilish va muzeylashtirish ishlari belgilangan boʻlib, 2020-2021-yillarda viloyatdagi eng katta hisoblangan "Quva shahristoni" arxeologiya yodgorligi hududidagi Budda ibodatxonasining qadimiy me’moriy poydevorini ochib oʻrganish, arxeologik tadqiqot olib borish, ishonchli muhofaza qilish va uni muzeylashtirish boʻyicha loyiha va eskiz-smetalari ishlab chiqildi va viloyat hokimligiga taklif kiritildi. Loyihaning umumiy qiymati 5,2 mlrd soʻm boʻlib, ish 2 yilda amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Moddiy madaniy meros obyektlarini boʻsh turgan joylaridan samarali foydalanish maqsadida 2020-yilda 17 ta madaniy meros ob'ektlarining boʻsh turgan xona va maydonlarini 28 ta tadbirkor va xunarmandlarga uch tomonlama ijara shartnoma asosida viloyat “Ijara markazi” tomonidan ijaraga berilgan. Mazkur obyektlarning Qoʻqon shahrida 10 ta, Margʻilon shahrida 5 ta, Bogʻdod

tumani hamda Furqat tumanidan 2 ta yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan bo‘lib, ushbu ob'yektlar bo‘yicha 127, 2 mln so‘mlik shartnomalar imzolandi.

2020-yil davomida manzilli dasturga kiritilgan Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan 7 ta madaniy meros ob'ektlarida Farg‘ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi nazorati ostida ta'mirlash-tiklash ishlari olib borildi. Marg‘ilon shahar  Uzun hovuz masjidi,, Miyon Hazrat madrasasi,Qo‘qon shahar adabiyot muzeyi binosi, Internat maktabi binosi, Shox Salim maqbarasi, Mo‘yi muborak ziyoratgohi, Rishton  tumani “Sohibi Hidoya” ziyoratgohini ta'mirlash ishlari uchun 3600, 0  mln so‘m mablag‘ sarflandi. Farg‘ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi tomonidan yangi aniqlangan 5 ta obyekt (Farg‘ona shahridagi 1906-yilda qurilgan “Kotelnikov uyi”, Quvasoy shahridagi “Muhammadali xoji” masjidi hamda O‘zbekiston xalq shoiri “Hamid Olimjon” xaykali, Toshloq tumanidagi “Chakka mozor” tepaligi, Bog‘dod tumanidagi “Jar qishloq” masjidi) Ilmiy-ekspert kengashining  2021-yil 25-fevraldagi 5 – sonli bayoni qaroriga asosan yangi ro‘yhatga olindi. 2021-yil davomida viloyatdagi moddiy madaniy meros obyektlariga tashrif buyuruvchi xorijlik va mahalliy turistlar miqdorini  oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali yodgorliklar tarixi haqida ma'lumotlarni yetkazish bilan birga aholi, ayniqsa yoshlarda hudud o`tmishiga  qiziqish uyg‘otish maqsadida Respublika va viloyat televideniyesi, ijtimoiy tarmoqlarda  ko`plab chiqishlar tashkil etildi.

Jumladan, Farg‘ona viloyatidagi madaniy meros obyektlari “O‘zbekiston tarixi” telekanali Farg‘ona viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi hamda viloyat Madaniy meros boshqarmasi bilan yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, hamkorlikda bir qator ko‘rsatuvlar tayyorlandi va efirga uzatildi. Har safar yangi manzil va yangi mavzu tanlanib, viloyatning diqqatga sazovor joylari, tarixiy ziyoratgoxlari xaqida muxim va qiziqarli ma'lumotlar berib borilmoqda. Joriy yilning aprel-may oylari “Ko‘hna manzillar” rukni ostida efirga uzatilgan ko‘rsatuvlarda Rishton, Farg‘ona tumanlari, Marg‘ilon shahrining o‘tmishi va buguni to‘g‘risida ko‘rsatuvlar tayyorlandi va efirga uzatildi. Ayniqsa,

Farg‘ona tumanidagi “Mug‘ Poshsho” arxeologik yodgorligi to‘g‘risida tayyorlangan maxsus ko‘rsatuv ko‘hna manzil tarixi ko‘rsatuvi efirga uzatildi. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Madaniy meros boshqarmasi, “Hunarmandlar” uyushmasi va Farg‘ona viloyati hokimligi hamkorligida tashkillangan “INFOTUR” ishtirokchilarining shaharning diqqatga sazovor joylarini ziyorat qilganlari to‘g‘risida “Dunyo bo‘ylab” va “Sevimli” kanallarida chiqishlar qilindi[19].

“Sevimli” kanaliga orqali 2021-yil 12-mart kuni “Qo‘qonning noyob obidasi” ko‘rsatuvi uchun Jome masjidi ustunlari xaqidagi ma'lumotlar berildi. Shuningdek internet tarmog‘ining Madaniyat.uz. saytiga ham uzatildi. Bundan tashqari “Sevimli” telekanalida 2021-yil 20-mart kuni “Qo‘qon tarixi”, “Hudoyorhon o‘rdasi”, “Ta'mir ishlari xususida”, “Qo‘qon arava” mavzularida intervyu berildi. “Qo‘qon arava” mavzusida tayyorlangan “Qo‘qon aravasi tarixiga nazar” ko‘rsatuvi efirga uzatildi.

Shuningdek, “Dunyo bo‘ylab” kanalida namoyish etiladigan ko‘rsatuv uchun “Xudoyorxon o‘rdasi” haqida, “Muloqot” telekanali orqali Norbo‘tabek madrasasi tarixi haqida, Respublika “Mahalla” radiosining “Ziyoratgohlar” eshittirishi uchun Qo‘qondagi ziyoratgoxlar haqida, “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Moziydan sado” ko‘rsatuvida “Jome masjidi tarixi haqida, O‘zbekiston muzeylari kanalida Furqat tumani Shoto‘ra qishlog‘idagi Novdarkayboy madrasasi haqida, “Ruxsor” televideniyesining “Borish shart” nomli ko‘rsatuvi orqali “Qo‘qon o‘rdalari”, “Xudoyorxon o‘rdasi”, “Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi” mavzularida ma'lumotlar berildi.

Ommaviy axborot vositalari orqali moddiy-madaniy meros obyektlari haqida ko‘rsatuvlar va maqolalar bilan chiqishlar xalqimizga va tarximizga qiziquvchi o‘zga yurt vakillarini sohaga doir axborot bilan ta’minlab boradi. Shuningdek,

[19] Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорлари ва вилоятга ташрифлари давомида берилган топшириқлар ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг ҳужжатларида белгиланган вазифаларга асосан вилоятни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш борасида Фарғона вилояти маданий мерос бошқармаси томонидан 2021 йил давомида амалга оширилган ишлар тўғрисида маълумот. 2021. Жорий архив

ushbu chiqishlar davomida tarixiy obyektning hozirgi kunda yetarlicha muhofaza etilmaganligi va turli sabablar tufayli yo‘q bo‘lish arafasida ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Farg`ona tumanida “Mug` poshsho” nomi bilan mashhur bo‘lgan arxeologik obyektda oxirgi 30 yilda biron marta arxeologik tadqiqotlar olib borilmaganligi va obyektni tabiiy hodisalar ta’sirida yo‘q bolib ketishini oldini olish uchun hech qanday ishlar amalga oshirilmaganligiga O‘zbekiston tarixi telekanali tomonidan suratga olingan “Ko‘hna manzillar” ko‘rsatuvining 2021-yil 19-may kuni Farg`onaning arxeologik yodgorliklari mavzusidagi sonida guvoh bo‘lamiz[20].

Madaniy meros boshqarmasi faoliyati vodiyning Andijon va Namangan viloyatlarida ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, tarixiy moddiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza etish , ulardan foydlanish, tadqiq etish va ko‘plab sohaga doir funksiyalrni bajarishmoqda. Hozirda Andijon viloyatida esa 422 ta obyektlar ro‘yxaga kiritilgan bo‘lib, ularning 221 ta arxeologiya, 74 ta arxitektura, 42 ta monumental va 85 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etmoqda. Namangan viloyati ham o‘zining tarixiy moddiy yodgorliklari salmoqli ekanligi bilan vodiyning boshqa viloyatlaridan qolishmaydi. Viloyatda turizm shiddat bilan rivojlanoyatganligini quyidagi raqamlar ham isbotlaydi. Xususan, Namangan viloyatda mavjud turizm obyektlari soni 301 tani tashkil etadi. 24 ta ziyoratgoh, 242 ta madaniy meros obyekti, 152 ta arxeologiya yodgorligi, 98 ta arxitektura yodgorligi, 22 ta istirohat bog‘lari mavjud[21].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Farg`ona vodiysida Madaniy meros boshqarmalari tomonidan moddiy-madaniy merosimizni asrab-avaylashga doir tegishli ishlar olib borilgan. Madaniy yodgorliklarni turizm maskanlariga aylantirish va ularda ilmiy tadqiqotlar olib borishda orqali tariximizni bizga ma’lum bo‘lmagan qismlarini tiklash uchun ko‘plab chora-tadbirlar ishlab chiqilib, tizimli ravishda ishlar olib borilmoqda.

---

[20] https://youtu.be/jUWzs3J5DnI
[21] https://yuz.uz/uz/news/namanganning-yuksalayotgan-turizm-salohiyatiiqtisodiyot-rivojida-ham-muhim-orinni-egallaydi

## II bob. Farg‘ona vodiysida arxeologik turizmning imkoniyatlari va muammolari

### 2.1. Mingtepada arxeologik turizmning imkoniyatlari va muammolari

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan sohalardan biri turizmdir. Yurtimizda turizmni tarqqiy etishi va kengayishi amalga oshirilayotgan islohotlar, sohaga doir qator qonun, farmon , farmoyish va boshqa normativ hujjatlarning qabul qilinishi o‘laroq ijobiy natijaga erishilmoqda. Xususan, 2017-yil 16-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g`risida “gi 3217-sonli qarori, 2019-yil 18-iyulda qabul qabul qilingan “Turizm to‘g`risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va yana bir qancha normativ hujjatlar turizm sohasining tizimli va tarmoqli faoliyatini olib borishda yangi bosqichga olib chiqdi. Avvalo ichki turizmning rivojlanishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muntazam ravishda rivojlanishida muhim sabablardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, yurtimizdagi tarixiy madaniy meros obyetklarini xalqimizga tanishtirish va ularning tarixiylik ahamiyatini tushuntirishda yetkchi ro‘l o‘ynaydi. O’zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini o‘stirishga, barqaroq turistik tarmoq yaratishga, aholi yashash darajasini oshirishga, tarixiy va madaniy yodgorliklarni asrab-avaylashga va jamiyatning ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa yurtimizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga va aholining bandligini darajasini oshirishga imkon yaratadi. Chunki, turizm chet el valyutasi kirib kelishini ko’paytirish, sayyohlarga xizmat ko’rsatish, yangi ish o’rinlari yaratish, turizm tarmoqlariga daromadlar olish bo’yicha bir qancha omillarni harakatga keltiradi.

Turizm sohasini jadal suratlarda rivojlantirishda sayyohlarni o’ziga torta oladigan, qiziqtira oladigan muhim obyektlar bo’lishi lozim. Buning uchun ma’lum bir hudud o’zining turistik resurslariga ega bo’lishi va ulardan to’g’ri foydalanish kerak. Respublikamizning ko‘plab maskanlarida turizmning turli yo’nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, Buxoro, Samarqand va Xiva

shaharlarida tarixiy turizmi yo’nalishi rivojlangan bo’lsa, Jizzax, Surxondaryo, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida eko va tibbiyot turizmi shakllangan. Shu o‘rinda ta’kidlab o’tish lozimki, Farg`ona vodiysi ham o’ziga xos jihatlari bilan turizmning turli yo’nalishlari tashkil topayotgan va rivojlanayotgan hududlar safiga qo’shilmoqda. Andijon viloyati arxeologik yodgorliklarining holati haqida quyidagi ma`lumotlar afsuslanarlidir. 1980-yilga qadar viloyatda 690 ga yaqin tepalik aniqlangan bo`lib, oxirgi tadqiqotlar natijasiga ko`ra 267 ta tepalik qayd qilingan. Bu teapliklardan 45 tasi to`laligicha buzilib ketgan. Ya`ni, hozirgi kunda atiga 222 ta yodgorlik saqlanib qolgan. Ushbu holat oxirgi 35-40 yil ichida Andijon viloyatidagi jami yodgorliklarning 70 foizga yaqini yo`q qilinganligi hamda qolgan 30 foizining  uchdan ikki qismidan ko`prog`ida qabristonlar ochilganligini ko`rsatmoqda. Bunday holatning yuzaga kelishining birinchi sababi sifatida aholi demografik o`sishining jadal sur`ati hamda mahalliy hokimyatlarning bu jarayonda puxta (yodgorliklarni saqlab qolish borasida) reja bilan ishlamayotganligi sababdir. Afsuslanarlisi shundan iboratki, ko`plab yodgorliklar bevosita mahalliy aholiga uy solish uchun ajratilgan cheklar oldida, ba`zilari esa aholi hovlilaridaqolib ketmoqda. Bunga Qo`rg`ontepa tumani Qorasuv massivi “Mustaqillikning 15 yilligi” MFY hududining 127-konturida joylashgan Qo`shtepa-2 yodgorligini misol qilib olishimiz mumkin. Mustaqillikacha davlatning ijtimoiy-iqtisodiy zarurtiga ko`ra yodgorlik o`rnida biror inshoot qurulishi kerak bo`lsa dastlab Arxeologiya institutiga murojaat qilinib, yodgorlik atroflicha o`rganilgandan so`ng u joydan foydalanilgan. Andijon viloyatining Qo`rg`ontepa tumanida eng ko`p yodgorlilar qayd etilgan bo`lib, ular 34 tani tashkil etadi. Biroq garchi tepaliklarning yo`q qilinishi boshq atumanlarda qayd qilingan bo`lsada,  aynan shu tumanda yodgorliklarning buzilishi nisbatan ko`proqdir. Bu esa tariximizning unsiz guvohlari bo`lmish tepaliklarni o`rganish imkoniyatlarini kamaytirmoqda. Zero, ularning buzilishi arxeologik merosimizni tiklab bo`lmas yo`qotish bo`ladi. Ushbu holat viloyat yodgorlilarini saqlash inspeksiyasi hamda viloyat va tuman hokimlarini jalb qilgan holda , zudlik bilan qonunda ko`rsatilgan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Garchi

ko`plab tepaliklarning saqlanib qolishiga ularning qabriston sifatida foydalanganligi sabab bo`lsada, u yerda tom ma`noda yodgorlilar buzimayapti deb bo`lmaydi. Boz ustiga bunday yodgorliklarini tadqiq etish uchun ulardan qabriston sifatida foydalanish to`xtaligandan so`ng ham, ma`lum tabiat qonunlariga ko`ra, 30-50 yil kutishga to`g`ri keladi. Bu esa tarixiy yodgorlik bag`rida berkinib yotgan tariximizni tadqiq etish imkoniyatini cheklashga olib keladi. Madaniy yodgorliknin turizm makoniga aylantirishda arxeologik tadqiqotning o`rni beqiyosdir. Andijon viloyatining Xonobod shahri, Xo'jaobod, Buloqboshi tumanlarida turizmni rivojlantirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Andijon viloyatda tarix va ziyorat turizmi sohalari rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar va resurslar yetarli. Mahalliy va xorijiy sayyohlarning e'tiborini jalb qilayotgan va qiziqishlariga sabab bo'layotgan maskanlardan biri – tarix turizmi uchun xizmat qiluvchi Marhamat tumanida joylashgan Mingtepa arxeologiya yodgorligidir. Marhamat tumanida ma'lum sabablar (komunikatsiya va energoresurslar) ga ko'ra sanoat deyarli tarqqiy etmagan. Shuning uchun, hududda aholining sanoat korxonalarida ish bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori emas. Bu muammoni yechishda tuman boshqa imkoniyatlardan keng ko'lamda foydalanishi zarur. Bu xudud O'zbekistonda eng ekologik tozza tumanlaridan biri hisoblanadi. Marhamat tumandagi ajdodlarimizdan qolgan katta boylik – tarixiy maskanlar, ziyoratgohlar, yodorliklar va shifobaxsh buloqlardan iqtisodiy foyda olish, yangi ish o'rinlari barpo etish uchun unumli foydalansa bo'ladi.Yuqorida keltirib o'tilgan imkoniyatlar hududda turizm sohasini rivojlantirib, ishsizlik muammosini hal etish, aholi turmush darajasini oshrish, ijtimoiy va maishiy infratuzilmani yaxshilash mumkin. Shuningdek, Marhamat tumani o'zining betakror tabiat manzarasi , tabiiy landshafti, shifobaxsh havosi boy tarixiy-madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu xududda turizmning qishloq, agro, eko, adabiyot, tarix, ziyoratgoh yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyati mavjud. Marhamat tumanining 100 dan ortiq tarixiy hamda zamonaviy maskanlar mavjud.

Mingtepa arxeologiya yodgorligi Andijon shahri markazidan 38 km. uzoqlikda, hozirgi Marhamat tumanining markazida joylashgan. Mingtepa tarixiy

manbalarda yoritilishicha, qadimiy Davon (Parkana, Day-yuan) davlatining markazi, ya'ni bosh shahri bo'lgan[22]. Qadimgi Davon davlati tarixi haqida ilk ma'lumotlarni xitoy tilidagi manbalardan olishimiz mumkin. Xitoy yozma manbalarida tilga olingan Buyuk ipak yo'lida joylashgan bu mahobatli shahar o'zining hunarmandchiligi, dehqonchiligi va "samoviy tulporlari" bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Xitoyda Davon otlari haqida, xatto qasidalar bitilgan[23]. Bu shahar xarobasi ichki va tashqi shahar qismlaridan iborat bo'lib, ichki qism taxminan 41,2 gektar, tashqi shahar qismi 300 gektarga yaqin maydonni egallagan antik davri yodgorliklaridan biridir. Mingtepa shahar xarobasi mashhur arxeolog olimlar A.N. Bernshtam, Yu.A. Zadneprovskiy, B.X. Matboboevlarning izlanishlari natijasida olingan xulosalariga binoan, qadimgi Davon davlatining bosh shahri Ershi shahri ekanligi aniqlandi. Bu tarixiy obidada arxeologlar, professorlar M.E. Masson 1939 yilda, A.N. Bernshtam 1946-1948 va 1950-1952 yillarda, Yu.A. Zadneprovskiy 1974 va 1987 yillarda, Boqijon Matboboev rahbarligida 1986-1987, 2002 yillarda qazishma ishlari olib borilgan. Ayniqsa, 2012-yildan buyon tarix fanlari doktori, professor Boqijon Matboboev rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Samarqand Arxeologiya instituti hamda Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti arxeolog olimlari hamkorlikda arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Aynan Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda arxeologik tadqiqotlar olib borishning sababi sifatida B. Matboboev Sian shahri universitetida qadimgi Farg`ona vodiysi tevaragidagi 70 dan ziyod shaharlarning biri bo'lgan Mingtepa haqida qilgan ma'ruzasini ko'rsatdi[24]. Natijada qadimiy shahardan juda qimmatli ahamiyatga ega topilmalar, moddiy ashyolar topildi. O'tgan yillar davomida yodgorlikning 20 dan ortiq nuqtasida arxeologik qazishma va kuzatuv ishlari amalga oshirildi. Tekshiruv ishlarida har ikki tomondan 8 arxeolog, 10 texnik va Andijon davlat universiteti professor-o'qituvchilari, tarix fakulteti talabalari

---

[22]www. mingtepa.uz/туризмни-ривожлантиришда-тарихий-ма/
[23] Р. Т. Шамсутинов А. А. Исҳоқов Андижон тарихидан лавҳалар "SHARQ" Тошкент 2013 20 бет
[24] www.kun.uz\uz\85361358

qatnashmoqdalar.[25] Arxeologik materiallar asosida Mingtepa shahrini Markaziy Osiyo tarixidagi o’rni va rolini, uni Buyuk Ipak yo’li savdo-iqtisodiy aloqalarida qatnashuvi, xo’jalik faoliyatini haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Keyingi davrilardagi qazishmalar davomida shaharning tarkibiy tuzilishi (ark, ichki shahar va tashqi shahar), moddiy madaniy qatlamlari stratigrafiyasi, mudofaa tizimi va bu yerda yashagan aholining hunarmandchiligi, san’ati, urf-odati, diniy tasavvurlari to’g’risida yangi ma’lumotlar olindi. Mingtepada topilgan yana bir sopol parchasini ichki tomonida afsonaviy Farg’ona tulporini tasvirini ko’rish mumkin.[26] Otning bosh va dum qismi saqlanib qolmagan. Mingtepadagi sopolga tushirilgan arg’umoq tasviri qo’shni Qirg’iziston respublikasining Aravon va Ayrimachtaudagi toshga so’qilgan rasmlaridagi otlar tasviriga juda o’xshaydi. Sopol parchasining tashqi tomoniga tovus tasviri chizilgan. Lekin uning bosh va oyoq qismidan tashqari yarim tasviri saqlanib qolgan xolos. Tovus qushi mifologik jihatdan ham ko’rinishi chiroyli bo’lganligi uchun qadimdan Farg’ona va qo’shni hududlarda e’zozlanib kelingan. Bu go’zal mavjudotlar ko’proq hukmdorlar saroylari xiyobonlarida parvarishlangan va saroyga o’ziga xos ko’rk bag’ishlab turgan.

Yana bir uchinchi sopol parchaning sirtida kabutar bosh qismi tasvirlangan. Shunga o’xshash qush tasviri milodiy V-VII asrlarga taalluqli Varaxsha saroyning sharqiy zalida uchraydi. Yana bir sopol parchasidagi tasvirlar mazmuni noma’lum bo’lib qolmoqda.[27]

Shunday qilib, O’zbekiston-Xitoy qo’shma arxeologik kompleks ekspeditsiyasining Mingtepa materiallari ichida birinchi marta topilgan qadimgi tasviriy san’at namunalari alohida ajralib turadi. Mazkur topilmalar Farg’ona vodiysi xalqlarini bundan 2000-2200-yil oldingi diniy-mafkuraviy qarashlarini o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

---

[25] www.mingtepa.uz\Туризмни ривожлантиришда тарихий-маданий меросларнинг ўрни\ Шахло Хусанова Артиқалиевна\Андижон Давлат Университети таянч докторанти
[26] www.mingtepa.uz Мингтепа: археологик қазишмалар ва уларнинг таҳлили Б.Х. Матбобоев*Ўзбекистон республикаси фа археологик тадқиқотлар институти бўлим мудири,Тарих фанлари доктори, профессор*
[27] https://mingtepa.uz/ мингтепа-археологик-қазишмалар-ва-ул/

Arxeologik izlanishlar natijasida topilgan topilmalar butun dunyo bo‘ylab sayyohlarning qiziqishlarini va e’tiborini  o‘ziga jalb qila oladigan noyob manbalardir. Turizm sohasi uchun Mingtepa arxeologiya yodgorligi ham o’zining boy tarixiy o‘tmishi, betakrorligi, tarixiy ahamiyati bilan mahalliy va dunyo turistlari e’tiborini jalb qilib,kata turistik makonga aylana oladi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 29 dekabrdagi 1059-son “Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi “Mingtepa” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish, tadqiq etish va undan oqilona foydalanish to’g’risida”[28]gi qarorining qabul qilinishi “Mingtepa” tarixiy madaniy merosining turizm yo‘nalishi va imkoniyatlarini kengaytirish uchun qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni belgilab berdi. Xususan, Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi “Mingtepa” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish, tadqiq etish hamda Marhamat tumanining turistik salohiyatini oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tuzib chiqildi. Unda sohani rivojlantirsh uchun 10 ta chora –tadbirlar ko‘rsatib o‘tilgan.Xususan, “Mingtepa” arxeologiya obyektida arxeologik tadqiqotlar va konservatsiya ishlarini amalga oshirish, “Mingtepa” arxeologiya obyektiga taalluqli bo‘lgan tarixiy-madaniy , ilmiy va ommabop ma’lumotlarni jamlash tahrir qilish va targ`ibot ishlarida foydalanish uchun Turizmni rivojlantirsh davlat qo‘mitasiga taqdim etish , “Mingtepa” arxeologiya obyektiga tashrif buyuruvchilar uchun avtomobil to‘xtash joyi , savdo va  boshqa shoxobchalarni tashkil etish, “Mingtepa” arxeologiya obyektini turistlar tashrif buyuradigan maskanga aylantirsh uchun respublikada faoliyat yurutuvchi sayyohlik tashkilotlariga infoturlar tashkil etish, “Mingtepa”, “Jingirtepa” va “Toshtepa” arxeologiya obyektlarini mahalliy va xorijiy turistlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish uchun ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, Internet va bosma nashrlarda maqolalar chop etish, tashkilotchilar tomonidan taqdim etiladigan mavzuga oid video materiallar Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining hamkori hisoblangan “Dunyo bo‘ylab” telekanalida va boshqa telekanallarda namoyish etilishini

[28] https://lex.uz/docs/-4135015?query=axborot%20vazirligi

ta'minlash va boshqa faoliyat turlarni tashkillash manfaatdor vazirliklar va Andijon viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilgan. Ushbu ishlarni asosan 2019-2020-yillarda Madaniy meros obyektlarini asrashga doir ishlarni amalga oshirish uchun budjet mablag'lari doirasida, viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha daromadlari, tashabbuskorlar mablag'lari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va ijrochilar mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Albatta, bu tadbirlar hududda turizmni rivojlantirshda katta ahamiyat kasb etadi. Mingtepa tarixiy yodgorligi nafaqat mahalliy sayyohlarni balki chet ellik turistlarning ham katta qiziqishlariga sabab bo'layotgan maskandir. Tashrif buyuruvchilar orasida AQSh, Italiya, Janubiy Koreya ,Xitoy, Yaponiya va MDH davlatlaridan kelgan sayyohlarning borligi biz uchun faxrlidir. Ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlari elchisi Pamella Spratlen xonimning Mingtepaga tashrifidan so'ng «O'zbekiston-24» kanaliga bergan intervyusida Mingtepa haqidagi fikrlari juda xayratlanarli: «Har qanday yerda turizmni rivojlantirish uchun bir omil alohida nazarda tutilishi lozim: sayyoh uchun mamlakatning o'zi qiziqarli bo'lishi kerak. O'zbekiston ana shunday qiziqarli davlatlar sirasiga kiradi. Samarqand, Buxoro kabi tarixiy shaharlar haqida ko'pchilik tasavvurga ega. Qadimiy shaharlarda tashrif buyuruvchi sayyohlarga yaratilayot gan sharoitlar ham o'sib bormoqda. Ammo, men ko'proq chet elda mashhur bo'lmagan shaharlari haqida gapirishni istardim. Masalan, Farg'ona vodiysidagi Mingtepa manzilgohini yaqindan tomosha qildim. Shubhasiz, bu ham sayyohlarni juda qiziqtiradi».[29]

Toshkent shahrida 2019-yil 22-yanvar kuni O'zbekiston Davlat tarixi muzeyida "Changandan Vandugacha" deb nomlangan ko'rgazma tashkil etildi. Ko'rgazmadan maqsad Xitoyning qadim Buyuk ipak yo'lida joylashgan shahri Changandan Mingtepagacha bo'lgan tarixiy joylardan topilgan qadimiy ashyolarni namoyish etishdan iborat bo'ldi. Ushbu ko'rgazma ochilishida Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi muxtor elchisi Szyan Yan xonim, o'zbek va xitoy tarixchi olimlari, ziyolilari ishtirok etdilar. Xitoy elchisi: "Mingtepa

---

[29] https://mingtepa.uz/

yodgorligi zamirida tashkil etilgan ushbu ko'rgazma ikki davlat o'rtasida madaniy va ma'naviy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi", deb yuqori baho berdi. Bundan tashqari, Marhamat tumanining o'zida turizm uchun xizmat qila oladigan 70 ga yaqin maskanlar mavjud. Ular sirasiga 10 dan ortiq ziyoratgoh, 30 dan ortiq shifobaxsh buloqlar, o'nlab tarixiy va zamonaviy maskanlar bor. Ular orasida Mingtepa arxeologiya yodgorligi eng mahobatliligi va ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Marhamat tumanida o'zining betakror tabiati, tabiiy landshafti, shifobaxsh havo oqimi, ayniqsa, boy tarixiy merosidan foydalanib, turizmning agro, eko, adabiyot, tarix, ziyoratgoh, qishloq yo'nalishlarini tashkil etish mumkin. Marhamat tumani "Alitepa", "Qorovultepa", "Oqto'nli ota", "Toshtepa", "Jung'ortepa", "Yig'loqtepa", "Davkarota", "Lo'mbitepa", "Oqboshtepa", "Temiratki mozor", "Boboxuroson ota", "Xotin qum", "Qo'ychi xalfa", "Xo'ja Bosmon ota", "Go'zal ota", "Mirishkor ota", "Ko'kto'nli ota", "Bandi ota", "Chashmai muborak", "To'ra bobo ziyoratgohi", "Mulla To'ychi ziyoratgohi", "Tabib ziyoratgohi" kabi qadimiy yodgorliklari, ziyoratgohlari, shifobaxsh buloqlarga boy hududligi bilan ajralib turadi. Ushbu tarixiy joylar bir necha asrlardan buyon halqimizning muqaddas maskanlari sifatida e'zozlanib kelinmoqda va ziyorat qilinmoqda.

Xalqimiz qadimdan ushbu maskanlarni ziyorat qiladilar va u yerdagi shifobaxsh buloq suvlari, tuproqlaridan davolanish maqsadida foydalanib kelmoqdalar. Garchi ushbu buloqlarning shifobaxshligi ilmiy asoslanmagan bo'lsada, amalda turli dardlarga shifo bo'layotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, Xo'ja Bosmon ota ziyoratgohida qo'tir yarasi, quloq og'rig'iga shifo bo'luvchi buloqlar, Oqbosh ota ziyoratgohida toshma yaralarga, sochiga oq tushganlarga, oshqozon-ichak kasalliklariga shifo bo'luvchi buloqlar, Bobo Xuroson ota ziyoratgohida esa, suvchechak, sachratqi, toshma yaralariga shifo bo'luvchi buloqlar, Temiretki mozor tepaligida esa temiretki kasalligiga shifo bo'luvchi tuproq, Xotin qum ziyoratgohida esa, qo'l, oyoq, bel og'riqlarga shifo bo'luvchi qumning mavjudligi bunga misoldir. Bu shifobaxsh maskanlardan respublikamizning turli viloyatlaridan, shuningdek, qo'shni Qirg'iziston,

Tojikiston, Rossiya davlatlaridan ham bemorlar kelib shifo topayotganligi olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan.[30]

Mingtepa arxeologiya yodgorligi o'zining qadimiyligi, mahobatliligi bilan turizmning qaynoq nuqtasi bo'la oladi. Shu sababli Mingtepa arxeologiya merosi va Marhamat tumanida mavjud bo'lgan ziyoratgohlarda turizmning tarix va ziyorat yo'nalishlarini rivojlantirish uchun ba'zi qadamlarni tashlash kerak deb o'ylaymiz.

Mingtepa yodgorligining tarixiy-arxeologik ahamiyatini, uning millatimiz tamadduni beshiklaridan biri bo'lganini e'tiborga olgan holda, mazkur ob'ektni xalqaro YUNESKO tashkilotining umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish, Mingtepa tarixiy-me'moriy arxeologik yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzey-shaharga aylantirish, yodgorlikni turistik manzilga aylantirish choralarini ishlab chiqish;

- Mingtepa arxeologiya yodgorligi atrofida ko'plab sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi savdo, xizmat ko'rsatish va ovqatlanish shohobchalari tashkil etish orqali aholining katta qismini ish bilan ta'minlash, zamonaviy infratuzilma va aholining turmush farovonligiga erishish;
- Hudud O'zbekistondagi eng ekologik toza, tabiiy landshafti, betakror tabiati, shifobaxsh havo oqimiga ega maskanlardan biri bo'lib, ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda tumanda tarix, ziyorat, eko, adabiyot, qishloq, agro yo'nalishlarida turizmni tashkil etish mumkin. Marhamat tumanida mavjud bo'lgan 70 ga yaqin ziyoratgohlar va shifobaxsh buloqlar joylashgan maskanlarni yanada obodonlashtirib, u yerlarda dam olish maskanlari, kichik sanatoriylar tashkil etish maqsadga muvofiq.

---

[30] www.mingtepa.uz\Туризмни ривожлантиришда тарихий-маданий меросларнинг ўрни Шахло Хусанова Артиқалиевна. Андижон Давлат Университети таянч докторанти

Mingtepa yodgorligini o‘rganilishi, uning turistik imkoniyatlarini keng ommaga yoyish , olib borilayotgan tadqiqotlarning natijasini keng ommaga yetkazish, ushbu hudud bo‘yicha tashkl etuladigan infoturlar haqiida ma’lumot berish uchun www.mingtepa.uz sayti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu sayt orqali Mingtepa moddiy-madaniy yodgorligi haqida keng ma’lumotlarga ega bo‘la oladi. Lekin sayt o‘z faoliyatini uch (o‘zbek, rus, ingliz) tilda olib borishi ko‘rsatib o‘tilganligiga qaramay ingliz tilida ma’lumotlar, ilmiy tadqiqotlar yetarlicha joylashtirilmagan. Bu esa o‘z navbatida axborotlashgan davrida ushbu manzilgoh haqida ko‘proq bilishni xohlovchi chet ellik qiziquvchilarning ma’lumotga bo‘lgan extiyojini qondira olmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Mingtepa arxeologiya merosi va tumandagi mavjud ziyoratgohlarning tarixini, ma’naviy va madaniy ahamiyatini xalqimiz ayniqsa yoshlarimiz o’rtasida keng targ’ib qilish orqali ularni saqlab qolish, obodonlashtirish va ulardan oqilona foydalanish, ya’ni turizmning ziyorat va tibbiyot yo’nalishlarini rivojlantirish mumkin.

## 2.2. Ilk o‘rta asrlar shaharsozlik madaniyatining namunasi Quvaning turistik imkoniyatlari

Yurtimizda juda ko‘plab tarixiy madaniy meros obyektlari xalqimiz va dunyo sayyohlariga tarixni yanada chuqurroq anglashga xizmat qilmoqda. Farg`ona viloyatining Quva tumanida joylashgan “Quva shahristoni “ ham o‘zining tarixiy jihatdan qimmatli yodgorlik ekanligi bilan ajralib turadi. Quva shahristoni hududida obyektning tarixiy ahamiyatini kengroq anglab yetish maqsadida bir necha bor arxeologik tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ko‘plab turar joy inshoatlari , buyumlar va tarixiy ashyolar topib o‘rganilgan. Xususan, shahriston hududida XX asrning 30-yillar boshlarida , 1939-1940-yillardagi Katta va Janubiy Farg`ona kanallari qurilish vaqtida hamda 1951-yili Pomir-Farg`ona arxeologik ekspeditsiyasi a’zolari tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Quva shahristoni tepaliklari ostida katta va qadimiy shaharning qoldiqlari yashirinib

yotganiga hech qanday shubha qoldirmadi[31]. Quva shahristonidagi dastlabki yirik qazishma ishlari 1956-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi tarix va arxeologiya instituti mutaxasislari boshlab berishgan. Ushbu arxeologik tadqiqotga Y. G`ulomov umumiy rahbar bo‘lgan. Oradagi tanaffuslar bilan 15 yil davom etgan izlanishlar natijasida katta miqdordagi arxeologik ashyolar topilgan. Quva shahristoni shimol qismida joylashgan katta to‘g`ri burchakli hovli (11.9x 11.9 m) va ibodatxonadan (21 x 41 m) iborat bo‘lgan diniy majmuaning kirish qismida , yer sathidan bor yo‘g`i 40 sm chuqurlikda ko‘milib yotgan inson gavdasidan ikki marta katta bo‘lgan budda haykali qazishmlar chog`ida aniqlangan. [32] Qazishmalar davomida topilgan buddaviylik ibodatxonasi yurtimizning ushbu hududida budda diniga sig`inuvchilar yashaganligidan dalolat beradi. Quva topilmalari Hindiston, Sharqiy Turkistonda aniqlangan materiallarga aynan o‘xshashligi , o‘rta asrlarda madaniy-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlangani, madaniyat va san`at yuksalganini ko‘rsatadi.[33] 1990-yildan so ‘ng ushbu arxeologik obyektni o‘rganish yanada kuchaydi. Asosiy sabablardan biri ko‘xna Quvachalik katta va yaxshi saqlangan yodgorlik Farg`ona vodiysida barmoq bilan sanarali. Bular Axsikent, Munchoqtepa (Pop tumani), Dalvarzintepa va Mingtepa kabi yodgorliklardir. Ikkinchidan, Quva yozma manbalar bo‘yicha ham, geografik joylashuvi bilan ham Buyuk Ipak yo‘lining eng serqatnovjoyida o‘rnashgan edi. U so‘zsiz sharqandan g`arbga, kunchiqardan kunbotarga o‘tgan qait`alararo savdo yo‘li tarixida alohida ro‘l o‘ynagan edi. Uchinchidan, vodiyning boshqa shaharlaridan farqli o‘laroq eng qadimgi madaniy qatlamlar salmog`i Quvada yaxshi saqlanib qolgan edi. Bular barchasi Quva shahar harobasini nafaqat janubiy Farg`ona balki butun vodiy qadim tarixini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lishidan dalolar berar edi. Shularni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti 1996-1999-yillarda maxsus guruhni Quvada ishlashga imkon yaratdi[34].

---

[31] Voris yoshlar jurnali 2011-yil 6-son Muborak sarchashmalar Quva bag`ridagi sirlar A. Sodiqov
[32] Voris yoshlar jurnali 2011-yil,6-son Qadimgi quvaning buddaviylik topilmalari t.f.n N. Abdulahatov
[33] B. X. Matboboyev, R. T. Shamsutdinov , A. Mamajonov Buyuk Ipak yo`lidagi Farg`ona shaharlari. Andijon: Meros, 1994. –B. 53.
[34] А. Анорбоев, У.Исломов., Б. Матбобоев .Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона .–Т.: ФАН, 2001.– Б.45

Shu o‘rinda Quva nomining kelib chiqish tarixiga nazar solsak. Quva so‘zining kelib chiqishida turli frazalar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ushbu atamaning “kuchli”, “keng shahar” deb taxmin qilsalar, boshqalari esa o‘zbek urug`laridan biri “quba”, arabchadagi “qubba” yoki Alon Quva afsonasi bilan bog`lashadi.Turkiy xalqlardan biri sag`aylarda Quba xudosiga otlarni qurbonlik qilishgan. Bu etnografik ma’lumotlarning Quva uchun, oz bo‘lsa-da tegishli tomoni mavjud. Asosiy sabab nomida o‘xshashlik bor. Ikkinchidan yuqorida aytilgandek sag`aylarda Quba xudosiga otlarni qurbonlik qilishgan. Tarixiy ma’lumotlarda qadimgi Davon uchqur otlari hozirgi Marxamat, Aravon, Asaka atroflarida yetishtrilgani haqida xabarlar uchraydi.Quva ham ularga qo‘shni hududda joylashgan. Qolaversa, joy nomlari  Asaka, Axtachi otlar bilan bo‘gliq. Ya’ni, Asaka otliq degani , Axtachi- bu sinchi (ot tabibi) yoki otboqar ma’nolarini beradi. Yana otning asosiy ozig`i bo‘lmish beda ham  Asaka, Aravon, Marhamat, Quvada serhosil bo‘lgan. XX asrning 20-30-yillarida vodiyda otlarning yarmi manashu tumanlarda yetkazilgan. Shulardan kelib chiqib, biz Qubo(Quva) nomi ana shu “Quba” nomi bilan bog`lashimiz mumkin[35].

Quva yodgorligining tarixiy ahamiyatini bu yerdan topilgan bitiklar yanada oshiradi. 1996-yilda xumning gardishiga yozilgan bitikni arxeolog G. P. Ivanov Quvaning markazi Shahristondan topadi. Bitikdagi 4 ta belgi VII- VIII asrda va undan keyin Markaziy Osiyoda va Shimoliy Kavkazda keng istifoda etilgan yozuv belgilari bilan uyg`un[36].  Bu kabi arxeologik yodgorliklarning topilishi ushbu hududning nechog`lik muhim tarixiy obyekt ekanligini ko‘rsatib turibdi.Shuningdek, dunyo dinlari orasida sig`inuvchilar soni bo‘yicha 3- o‘rinda turuvchi buddaviylik diniga oid qadimgi yodgorlikning topilishi dunyo bo‘ylab diniy turizmni amalga oshiruvchi sayyohalrni o‘ziga jalb qilishi ayni haqiqat. Lekin, ushbu tarixiy madaniy meros obyektini dunyo hamjamiyatiga tanishtirish va

[35] А. Анорбоев У., Исломов Б., Матбобоев. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. –Т.: ФАН, 2001 – В.46
[36] Н. Раҳмонов Б. Матбобоев  Ўзбекистоннинг кўхна тукий -ёрун ёзувлари. – Т.: Фан, 2006 .– Б.16.

tashrif buyuruvchi sayyohlarni jahon standartlari asosidagi infratuzilma bilan kutib olish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Farg`ona viloyatida madaniy meros obyektlarining turistik makonga aylantirsh borasida Farg`ona viloyati madaniy meros boshqarmasi va Farg`ona viloyat Turizm bosh boshqamasi tomonidan bir qancha loyihalar ishlab chiqilagan. Xususan, biz o‘rganayotgan “Quva shahristoni”da ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilishini ko‘zda tutuvchi rejalar tuzilgan.Quva tumani Toshkent MFY hududida joylashgan, umumiy maydoni 14 gektardan iborat “Quva shahristoni” hududining shimoliy-g‘arbida yangi obyekt, ya’ni “Farg‘ona vodiysi dinlari muzeyi” tashkil etish, mudofaa devoriga tutashgan holda “Qoraxoniylar arki” kirish qismi, undan “Ahmad al-Farg‘oniy” ramziy maqbarasi, zarbxona qurilishiga 7 mlrd.so‘m, “Quva shahristoni” 3,3 km uzunlikdagi aylanma yo‘lni qurish uchun 848,8 mln.so‘m, yangi quriladigan obyektlarni elektrlashtirish va chiroqlashtirish uchun 600 mln.so‘m, yangi va mavjud obyektlarga ichimlik suvi, suvoqava va sug‘orish ta’minoti yaratish uchun 584 mln.so‘m, jami **9 032,8** mlrd.so‘m mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan.[37] Ushbu loyihaning amalga oshirilishi Quva shahristonini yirik turistik makonga aylantirib qolmasdan, shu hudud aholisining ham yashash tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Keng ko‘lamli ishlar natijasida yuzdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar ham o‘zlarining soha bilan aloqador faoliyatlarini kengaytirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yakunlovchi fikr sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zining boy tarixiy o‘tmishiga ega bo‘lgan yurtimizning ushbu makonini iloji boricha yaxshi holatda saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish shuningdek, sayyohlarni jalb qilish orqali yurtimizning dunyoning tarixiy makonlaridan biri ekanligini ko‘rsatish oldmizda turgan asosiy vazifadir

---

[37]. Farg‘ona viloyati Turizm va sport bosh boshqarmasi tomonidan
2021 yil yanvar-sentyabr oylarida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisoboti // Joriy arxiv. 2021-yil

## 2.3. Axsikentning ochiq osmon ostidagi muzeyga aylanishi

Ma'lumki, diyorimiz jahon tarixi va svilizasiyasining eng qadimiy maskanlaridan va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab bebaho arxeologik, me'moriy va yozma yodgorliklar mavjuddir. Ajdodlarimiz qoldirgan ushbu moddiy va madaniy ashyolar shu qadar rang-barang va behisobki, bunga arxeologik yodgorliklar yaqqol misol bo'la oladi. Bu yodgorlilar bir necha mingyillik tariximizning sirli sahifalari, bobolarimiz qadoq qo'llarining zaminda qolgan o'chmas izlari, ota-bobolarimizning madaniy merosi, o'z davriidagi go'zallik olamining mezonidir. O'lkamizdagi har bir arxeologik yodgorlik, tepaliklar xalqimizning o'tmishdagi boy madaniyati va san'atini saqlab qolgan bebaho xazinalardir.

Namangan viloyatida ham yuqoridagi kabi me'moriy va arxeologik yodgorliklar mavjud bo'lib, ushbu fikrimizni yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyevning ushbu fikrlari tasdiqlaydi: "Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug'tepa kabi me'moriy yodgorliklar o'tmishda ushbu hududda o'ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi"[38]

Axsikent eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan bo'lib, qadimgi Farg'ona davlatining poytaxti, Buyuk ipak yo'lining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan[39]. Tarixiy manbalarda, xususan, "Boburnoma"da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo'lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan.

Shahar ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan. Bu yerda o'z davrida shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandlik turlari rivojlangan. 1620-yillarga kelib zilzila oqibatida ulkan shahar vayron bo'lgan. Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo'lib, Farg'ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari,

---

[38] https://axsikent.uz/category/article/15
[39] https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=qadimiy_axsikent_zbek_davlatchiligi_tarixidan_darak-a72

jome' masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib oʻrganilgan. Xitoy manbalarida Fargʻona shahri nomini xitoychaga tarjima qilib "Yuan", vodiy nomini esa "Da Yuan" (Katta Fargʻona) deb, tilga oladi. Shahar topografik nuqtai nazardan 3 qismdan iborat boʻlgan: ark, ichki va tashqi shahar. Miloddan avvalgi 128-127-yillarda talantli xitoy diplomati Chjan Syan Fargʻona davlatida boʻlib, davlatni podsho 2 ta maslahatchisi va Oqsoqollar kengashi (parlament) yordamida boshqaradi, deb yozadi. Uning Xitoy imperatoriga yoʻllagan maktubida Fargʻonaning uzumi, undan tayyorlangan ajoyib ichimligi va samoviy tulporlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shundan keyin Xitoy imperatori Fargʻona davlati bilan oʻzaro aloqani yoʻlga qoʻyish va u yerdan samoviy tulporlarni olish uchun bir necha marotaba elchilar bilan savdo karvonlar joʻnatadi. Lekin fargʻonaliklar samoviy tulporlarni xitoyliklarga bermaydi. Natijada, miloddan avvalgi 104-yil Xitoy va Fargʻona orasida 4 yillik urush boshlanadi. Urushdan charchagan har ikki tomon kelishib, sulh tuzadilar. Bunga binoan fargʻonaliklar xitoyliklarga 300 dan ziyod uchqur tulpor otlar beradi. Oʻzaro tinchlik oʻrnatilib, savdo aloqalari yoʻlga qoʻyiladi. Fargʻona Xitoyga samoviy tulporlar, uzum va undan tayyorlangan ichimliklar, paxta va boshqa mahsulotlar yubora boshlaydi. Xitoydan esa Fargʻonaga ipak matolar, ayollarning upo-atirlari va boshqa tovarlar keltirilgan. Shu davridan boshlab Gʻarb bilan Sharqni bogʻlovchi Buyuk ipak yoʻli muntazam faoliyat koʻrsata boshlaydi.

Yuqorida tilga olingan urushdan keyin fargʻonaliklar oʻz poytaxti mudofaasiga katta e'tibor berib, shahar devorlari qalinligini 20 metrga yetkazadilar[40]. Milodiy eraning VIII asri boshlarida arab tarixchisi Taboriy Fargʻona shahrini birinchi boʻlib tilga oladi. IX asrning birinchi yarmida Ibn Xordadbex bergan ma'lumotlarga tayanib, Fargʻona shahrini Axsikent yodgorligi

---

[40] А. Анорбоев У. Исломов Б. Матбобоев Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона Тошкент ФАН 2001 9 бет

o‘rnida bo‘lganligi ilmiy asoslandi. Faqat IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yozma manbalarda Farg‘ona shahri Axsiket deb atala boshlangan. Numizmatik materiallarda esa shahar to XI asrning o‘rtalarigacha ikki nom bilan Farg‘ona Axsiket deb atalgan ekan. Demak, mahalliy xalq o‘z shahrining eski nomini uzoq davri unutmagan. Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, poytaxt shahar Axsiketning maydoni IX-XII asrlarda 400 gektardan oshib ketadi, aholisi 200 mingdan ziyod bo‘lgan. Shahar har tomonlama rivojlanib, gullab yashnaydi. Bu yerda toshga ursa uni kesadigan, egilsa ham sinmaydigan dunyoga “Damashq qilichlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan qurollar yasalib, Sharqda Xitoy, G‘arbda xalifalik poytaxti Damashq bozorlarida sotilgan. Xuddi shu davrida X asrning o‘rtalaridan Axsiket shahrida yer osti vodoprovod sistemasi faoliyat ko‘rsatgan. Vodoprovod pishirilgan g‘ishtlardan hozirgi metro usulida tunnel ko‘rinishida qurilgan bo‘lib, har 80-100 metrda pishiq g‘ishtlardan qurilgan yer osti yarim gumbazsimon xonada suv tindirgich hovuzlar bilan ta’minlangan. Ushbu xonaga o‘sha davri yer sathidan maxsus xona va zinapoyalar orqali tushilgan. Toza ichimlik suvi qurilma ichiga o‘rnatilgan sopol quvurlarda oqqan. O‘z davriining buyuk muhandislari yaratgan bu vodoprovod 250 yildan ziyod davri faoliyat ko‘rsatgan. Qiyosiy tahliliy tadqiqotlarga qaraganda, ushbu yodgorlik o‘rnidagi qadimda Farg‘ona, keyinchalik Axsiket deb atalgan shahar mo‘g‘ullar istilosi davriida vayron etilgan. So‘ng Axsiket shahri yangi joyda, bu yerdan 6 km g‘arbda, hozirgi Axsi qishlog‘i yaqinida Sirdaryoning o‘ng qirog‘i bo‘ylab yangidan qurilgan. Ushbu shaharda Bobur Mirzoning otasi Umar shayx Mirzo Farg‘ona vodiysiga hukmronlik qilgan.

Ayni paytda Axsikent yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab allomalarning kindik qoni to‘kilgan zamin hamdir. Xususan, Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So‘fiy Axsikatiy, «Zul Fazoil» («Fazilatlar sohibi») laqabi bilan shuhrat qozongan Abu Rashod Axsikatiy, «Zul Manoqib» («Maqtovga sazovor xislatlar egasi») laqabini olgan Abul Vafo Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy, «Maliki shuaro» («Shoirlar podshosi») va «Amiri shuaro» («Shoirlar amiri») darajasiga erishgan Abdul Fazl Muhammad Tohir Asiriddin Axsikatiy, Tojuddin Abu Bakr bin Ahmad al-Axsikatiy al-Xo‘jandiy, Sayfiddin Axsikatiy, Mavlono

Poyanda Oxun Axsikatiy, Muhammad Yusuf ibn Imomuddin Axsikatiy, Ibrohim ibn Yusuf bin Imomuddin Axsikatiy diniy va dunyoviy ilmlar sohasida shuhrat qozonganlar[41]. Yurtimizning har bir hududi qadimdan hunarmandchilikning bir turiga ixtisoslashib kelgan. Shu o'rinda «Farg'ona vodiysi Afrosiyobi» deb e'tirof etiladigan qadimiy Axsikent shahrida ham antik davridan boshlab hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik va qurol-yarog' ishlab chiqarishga ixtisoslashgan temirchilik sohalari taraqqiy etgan. Axsikent temirchi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan qilichlar o'rta asr G'arbiy Yevropa adabiyotlarida «Damashq qilichlari» nomi bilan tilga olingan. Toshga ursa, uni kesadigan, egilsa ham sinmaydigan g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan qilichlar haqida har xil rivoyatlar to'qilgan. Aslida ushbu qilichlar tarixi Farg'onaning bosh poytaxti Axsikent (Farg'ona) tarixi bilan bevosita bog'liq.

Yozma manbalarga murojaat qilsak, ularda (Istahriy, Ibn Havqal) Ustrushonadan qazib olingan temirdan farg'onalik hunarmandlar inson aqli bovar qilmaydigan buyumlar tayyorlashgan va Farg'onadan Buyuk Ipak yo'li orqali qurollar ham eksport qilingan, degan umumiy gaplar mavjud.

Shu o'rinda Axsikent bilan bog`liq yana bir masala mavjudki, bu haligacha to'liq o'z tasdig`ini topmagan. Aksikent qadimgi Davon davlatining poytaxti bo'lganmi yoki yo'qmi? Bu savolga bir qancha olimlar o'z fikrlarinibildirib o'tganlar. Xususan, N. Y. Bichurin Davon davlatining poytaxti hozirgi Qo'qon o'rnida bo'lgan desa, A.N.Bernshtam uni Marxamat tumanidagi Mingepa yodgorligi o'rnida bo'lgan degan fikrni ilgari suradi. Axsikent yodgorligi bo'yicha ko'plab arxeologik tadqiqotlar va ilmiy ishlar muallifi A.Anorboyev o'zining ko'p yillik izlanishlari natijasidan kelib chiqib Davon davlatining poytaxti Axsikent yodgorligi o'rnida bo'lganligini ilmiy asoslashga harakat qilgan[42].

Bu masala keyingi 40-50 yil mobaynida juda ko'plab tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Farg`ona Davlat Universiteti tarix

---

[41] https://m.kun.uz/uz/news/2019/11/03/manbashunosligimiz-dostonlarga-tayanib-tarix-bitadigan-darajada-qashshoq-emas-axsikent-tarixi-munozarasi

[42] А. Анорбоев У. Исломов Б. Матбобоев Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. –Т.: ФАН, 2001 –В.11

kafedrasi proffesori M.Isomiddinov Davon davlatining poytaxtini Axsikentdan emas, boshqa joydan qidirish kerak deb ta’kidlaydi[43]. Chunki, Farg`onaning poytaxt shaharini bosib olish uchun Xitoydan suv bo‘yicha maxsus injenerlar keltirilishi masalasi o‘sha davridagi jarayonlarga ancha aniqlik kiritadi. Agar poytaxt-shahar- Axsikent shundoq daryo bo‘yida bo‘lganda edi , u albatta Xitoyliklar tomonidan “Davon davlatining poytaxti Sirdayo bo‘yida joylashgan” deb eslatilishi kerak edi. Sirdayoday yirik daryoning eslatilmasligi mumkin emas edi. Mabodo Axsikentliklar Kosonsoydan suv ichgan va irrigatorlar shu daryo suvini burishgan deguvchilar bo‘lsa, bu daryo suvini Burgan taqdirda ham shaxarliklar Sirdaryo suvidan bemalol foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishgan.

Axsikent shahri Davon davlatining poytaxti bo‘lish yoki bo‘lmasligidan qat`iy nazar uning tuzilishi, tarixiylik ahamiyati, uning tarixiy ashyolarga boy ekanligi va boshqa jihatlari bu maskaning bizga ochiq osmon ostidagi muzey sifatida tarixini ko‘rsatib tura olish imkoniyatlariga ta’sir etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘iga muvofiq 2017-yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo‘yicha ulkan ishlar boshlandi. «Axsikent» arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi.

Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va xorijdagi sayyohlik ko‘rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o‘tkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o‘rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab

---

[43] М. Исомиддинов Фарғона водийси археологияси ва тарихий тараққиётининг айрим долзарб муаммоларига доир. “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. – Фарғона . 2014. –– Б.11.

chiqilgan. Ayni kunda shu asosda Farg‘ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, zarur infratuzilma, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari qurilib, Axsikent turizm manziliga aylantiriladi. Davlatimiz rahbari Axsikent tarixini ilmiy asoslangan holda chuqur o‘rganish, ajdodlarimizning asl o‘tmishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va yosh avlodga singdirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish kerakligini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 18-fevralda Namangan viloyatiga amalga oshirilgan rasmiy tashrifi davomida Axsikent moddiy-madaniy merosi haqida yana bir bor to‘xtalib o‘tib quyidagi fikrlarni bildirib o‘tdi: Namangan viloyatida yo‘l, transport, qurilish va kommunal infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Davlat rahbari Axsikent yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish loyihasiga alohida e’tibor qaratdi.

Axsikent - juda nodir yodgorlik. U yerdagi ishlarni ilm bilan, milliy g‘urur bilan, hurmat bilan bajarish kerak. Bu joy “Namanganning Registoni” bo‘lishimkoniyatlariga ega. Amalga oshirilayotgan loyihalar va qaratilayotgan e`tibor o‘z natijasini bermay qolmaydi. Axsikent tarixiy yodgorligi nafaqat Farg`ona vodiysi balki butun O‘zbekistonni dunyo sayyohlariga tanitadi va doim o‘ziga jalb qila oladigan turistik makonga aylanadi.

## III bob.Farg‘ona vodiysi moddiy-madaniy yodgorliklarning turizm industriyasida nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar

### 3.1. Farg‘ona vodiysida turizmni rivojlantirish istiqbollari

Bugungi kunda turizm sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Mamlakat turizimining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki madaniy aloqalarning rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Sayyohlik industriyasini yo‘lga qo‘yish uchun mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab qonunlar va huquqiy normalar yaratish shart-sharoitlari tug‘ildi. Chunki, sobiq Ittifoq davriida amal qilib kelingan me'yoriy hujjatlarning ahamiyati yo‘qoldi va xalqaro talablar doirasida islohotlarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keldi. Natijada, mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish jarayonlarida ekoturizmni ham turizmning alohida turi sifatida davlat va xalqaro miqyosida yanada rivojlantirishni, bu sohada iqtisodiyotni boyitish bilan birgalikda yangi ish o‘rinlarini yaratish muhimligi bilan belgilandi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratib kelindi. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Unda ekoturizmning maqsadi va vazifalari ekoturizmning xalqaro talablari va huquqiy-me'yorlari belgilab berildi. Ekoturizm an'anaviy turizmning muhim qismi bo‘lib, shakllanishi jihatdan yangi bo‘lsa-da, istiqbolli hisoblanadi. U hozirgi paytda umumiy sayyohlik bozorining 10-20 foizini ishg‘ol etgan, o‘sish sur'ati esa tobora ortmoqda. Ekoturizmga nafaqat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlarni ko‘zlagan holda ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o‘simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish bilan bir-biriga bog‘liq majmualar yig‘indisi sifatida ham qarash lozim. Keyingi yillar davomida turizm sohasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishmaqsadlari mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasigaaylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirishhamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalbqilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evazigatakomillashtirishga qaratilgan.

Xususan, O‘zbekistonda turizimning madaniy, etnik, gastronomik, ekoturizm, yoshlar turizmi, ziyorat, badiiy va boshqa turlariga alohida e’tibor qaratilishi natijasida dunyo hamda mamlakat miqyosida turistlarni jalb qilib qilish tobora kengaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham, “Turizmni iqtisodiyotning strategiktarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – 2020-yilda O‘zbekistonga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga yetkazishdan iborat. Ma'lumki, qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020-yilda O‘zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritdi. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanish, katta salohiyatga ega bo‘lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur”[44],–deb alohida ta'kidlab o‘tdi.

2020 yil mart oyida JSST tomonidan dunyoda e'lon qilingan koronavirus pandemiyasi sharoitida turizm sohasida servis xizmatlarini tashkil qilish, sanitariya epidemiologik talablarga rioya qilgan holda ichki turizmni amalga oshirish, hududlarning mavjud infratuzilmasini rivojlantirish hamda turizm sohasidagi amalga oshirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini izchil davom ettirish maqsadida “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda turizm sohasini jadal sur'atlarda tiklash va mamlakatdagi sanitariya epidemiologik vaziyat barqarorlashgandan so‘ng uni rivojlantirishning yangiyo‘nalishlarini shakllantirishda tadbirkorlik sub'ektlariga qo‘shimcha imtiyoz va preferentsiyalar taqdim etildi[45]. Aytish joizki, mamlakatimiz o‘zining tabiy-geografik joylashuvi, aholisining etnik xilma-xilligi, tarixi, tabiati bilan bevosita bog‘liq holda turizm

---

[44] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Парламентга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521).

[45] Ўзбекистон Президентининг 2020 йил 19 июндаги “Туризм соҳасини санитария-эпидемиологик хавфсизликнинг кучайтирилган режими талабларига қатъий риоя қилган ҳолда ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4755-сон қарори. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2020 йил 22 июнь, 24-сон, 263-модда.

sohasining ma’lum yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish mumkin. Jumladan, Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Termiz va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘zining hushmanzara tabiati, xilma-xil yashash tarzi, urf-odatlarining saqlanib qolishi, noyob ekzotik nabotot va milliy hunarmandchilikning taraqqiy etishi turizmning rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, YUNESKO ning “Ipak- yo‘li – muloqot yo ‘li” loyihasi doirasida 1991-yil 17-apreldan to 18-iyunga qadar “Cho‘l yo‘li” ekspeditsiyasi davomida Farg‘ona vodiysidagi o‘zbek, qirg‘iz va tojiklar madaniyatining o‘rganilishi ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga ma’lum ma’noda xizmat qildi. Farg‘ona vodiysi qadimiy arxeologik manzilgohlari, tarixiy madaniy meros obyektlari, xushmanzara makonlari, zamonaviy mehmonxonalari, shuningdek, xalqimizning mehmondo‘stligi sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha alohida ajralib turadi. Farg‘ona viloyatida turistik obyektlar soni 79 tani tashkil etadi. Har bir obyekt sayyohlarni jalb qilishda faoliyat turiga qarab ma’lum guruhlarga bo‘linadi. Jumladan, 23 tasi arxitektura yodgorligi, 11 tasi muzey, 7 ta ziyoratgoh shuningdek, agroturizm, ekoturizm va diqqatga sazovor joylar sifatida faoliyat olib bormoqda [46]. Bu yo`nalishlardan qaysi biri Frag`ona viloyatida turizimni rivojlantirishda yetakchilik qila oladi degan savol tug`ilishi mumkin. Viloyatda mavjud bo`lgan arxitektura yodgorliklarining asosiy qismi Chor Rossiyasi davriida yoki undan keyingi davrida qurilgan binolar va ularining soni viloyat miqyosida olib qaraganda ko`p emas. Shuning uchun arxitektura yodgorliklarining sayyohlarni jalb qilishda yetakchilik qilish imkoniyatlarini yuqori baholamagan bo`lar edik. Farg`ona viloyatida yuqorida keltrilgan ma`lumotga ko`ra 7 ta ziyoratgoh faoliya olib bormoqda ekan. Lekin bizga ma`lumki, viloyat miqyosidagi har qanday ekoturizm va so`lim dam olish maskanlarida ziyorat turizmi ham amalga oshiriloqda. Masalan, Farg`ona tumanida joylashgan Avval turizm qishlog`ida asosiy tashrif buyuruvchilar salqin havo va so`lim go`shalarda dam olish uchun kelaslarda ular Xo`jam Poshsho (XVII asr) ramziy qabri va chillaxonasini ziyorat qilib qaytishadi. Bu kabi misollarni

[46] Farg ‘ona viloyati yo ‘nalishlari va turistik obyektlari reestri 6- ilova.

ko`plab keltirishimiz mumkin. Shuni nazarga olish kerakki, ziyorat turizmi Farg`ona viloyatida asosan ichki turizm taraqqiyotiga o`z hissasini qo`shadi. Jahon tajribasi va dunyoda turizmning eng taraqqiy etgan sohalari orasida tarixiy maskanlarga amalga oshiriladigan sayyohlikdir. Misol tariqasida olasak, Turkiya davlatida joylashgan qadimgi Troya shahri xarobalarini ko`rish uchun har yili ushbu hududga 2 milliondan ortiq turistlar tashrif buyurishiga guvoh bo`lamiz. Ushbu tarixiy yodgorlik 4 gektar maydonda joylashgan bo`lib , unga yaqin bo`lgan hududlarda turizm industriyasiga bog`liq bo`lgan.

Bugun turizm maskanlari sifatida hunarmandchilik markazlari ham muhim ro‘l o‘ynamoqda. Farg‘ona vodiysining Marg‘ilon, Rishton, Chust, Qo‘qon va yana ko‘plab hunarmanchilik markazlari turizim industriyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Sayyohlar mablag‘larining 30 foizini hunarmanchilik buyumlarini xarid qilishga safrlanishini inobatga olsak, tashqi turizm jozibadorligini oshirishda milliy hunarmandchilikning o‘rni katta ekanligi ma’lum bo‘ladi[47].

Hunarmandchilik turizmi salohiyati nuqtai nazaridan yuqori imkoniyatlarga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysi - muhim iqtisodiy mintaqada joylashgan hudud hisoblanadi. Farg‘ona vodiysining hunarmandchilikka ixtisoslashgan tumanlari mintaqaviy va milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida muhim rol o‘ynaydi.

Rishton tumani Qadimgi Ipak yo‘li yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan bo‘lib o‘zining kulolchiligi bilan doimo mashhur bo‘lib, u Markaziy Osiyoda yirik ishlab chiqarish markazi bo‘lgan. Bugungi kunda milliy kulolchilik an’analari avloddan-avlodga o‘tib, jadal rivojlanishda davom etmoqda. Rishtonda 20 dan ortiq katta hunarmandlar mehnat qilmoqda, har biri 30 nafardan 50 nafargacha oilani ish bilan ta’minlagan. Mahalliy aholi uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tortib badiiy kulolchilik mahsulotlarigacha bo‘lgan tayyor mahsulotlarni uyda bo‘yash bilan shug‘ullanadi. Rishtonlik kulollarning o‘ziga xos an’ana va ko‘nikmalariga asoslangan holda

[47] Rasulov. M. F. O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo‘lgan munosabatning transformatsiyasi(1980-2019-yillar) tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent , 2020. – B. 97

aholining keng qatlamlari yirik kapital qo‘yilmalarisiz ish o‘rinlari va barqaror daromad bilan ta’minlanmoqda. Rishton kulolchiligi uch yuz yildan ziyod (1797-1872 yillar) an’anaviy hunarmandchilik tarixiga ega. Turizmni iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantiruvchi va hunarmandchilik qishloqlarining madaniy o‘ziga xosligini saqlaydigan asosiy iqtisodiy sohaga aylantirish uchun hunarmandchilik turizmini rivojlantirishni rag‘batlantirish siyosatini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Farg‘ona vodiysida kulolchilik (Rishton tumani), Marg‘ilon adraschilari (Marg‘ilon shahri) kabi mashhur mahsulotlarga ega bo‘lgan bir qator mashhur hunarmandchilik tumanlari mavjud. Garchi an’anaviy hunarmandchilik qishloqlari mavjud bo‘lsa-da, ko‘plab noyob hunarmandchilik turlarini yaratgan, ular hali ham xalqaro sayyohlik bozorlarida o‘z o‘rnini topmagan. Hozirgi vaqtda Farg‘ona vodiysidagi hunarmandchilik yodgorlik bozori madaniy resurslarga mos ravishda rivojlanmagan. Yetarlicha targ‘ibot qilinmaganligi sababli mahalliy va xorijiy sayyohlarni qoniqarli jalb eta olmaydi.

Hududda hunarmandchilik qishloqlari turizmini rivojlantirishda quyidagi uchta muhim omillarga e’tibor berish lozim bo‘ladi:

- yangicha infratuzilma – odatda jismoniy, madaniy, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv infratuzilmalariga bo‘linadi. Xususan, jismoniy infratuzilmalar transport, mehmonxona, elektr energiyasi, aloqa xizmatlaridan iborat bo‘ladi. Jumladan, sayyohlik, mehmonxona xizmatlari va avtoulovlarni ijaraga berish xizmatlari – infratuzilmalar raqobatdoShligida muhim rol o‘ynaydi va sanoatning arteriyasi bo‘lib xizmat qiladi.

- tashqi bozorga chiqish - ushbu omilni tahlil etish jarayonida hunarmandchilik turizmi bo‘yicha tashrif buyurgan mehmonlar uchun mehmonxona sektoridagi xizmat ko‘rsatish sifati eng muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Mehmonxona sektorini rivojlantirish uchun o‘ziga xos yo‘l mavjud. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritishga tayyor yoki tayyor emasligiga qarab xalqaro bozorga kirib borish. Bu holatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni boshqarishni maksimal darajada oshirish va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash. Bunday

vaziyatlarda bozor bilimlariga ega bo‘lish, aktivlarga ta’sir qilishni minimallashtirish va risklarni to‘g‘ri boshqara bilish muhim.

- malakali kadrlar tayyorlashga sarmoya kiritish - turizm sohasini rivojlantiriShda ishga qabul qiluvchilar salohiyatli nomzodlarni saralab ularni turizm sektori ravnaqi uchun 5 ta muhim ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida o‘qitishga sarmoya kiritilishi maqsadga muvofiq.

Shuni ta’kidlash joizki, turizm yosh avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashdagi ahamiyatini inobatga olgan holda turizmning yoshlarning ruhiyatiga qiladigan muhim ta’sirlarini ham unutmaslik kerak: turizm yoshlarni vatanparvar etib tarbiyalashga o‘z hissasini qo‘shadi. Ya’ni, o‘z o‘lkasida sayohat qilgan odam qanday tabiiy va madaniy boyliklarga egalik qilayotganligini bilib oladi; qanday ajoyibotlarga egalik qilayotganini bilgan inson o‘zining qo‘lga kiritgan merosidan g‘ururlana boshlaydi; Milliy boyligidan g‘ururlanayotgan odam o‘z yurtini seva boshlaydi. Shu sababli qadimgi sharq mutafakkirlari insonni dunyoni ko‘rishga chaqirishgan, chet ellarga chiqishdan oldin o‘z vatanlari ichida safar qilishga undashgan.

Ko‘plab qadimgi yunon mutafakkirlar ham inson tarbiyasida sayohatlarning o‘rni va ahamiyati haqida fikrlar bayon etishgan (Arastu, Demokrit, Kvintelian). Ularning fikrlaricha, inson tarbiyasida tabiatni o‘rganishning ahamiyati katta, tabiatni esa, faqatgina bevosita u bilan muomala etganda o‘rganish mumkin. Sayohatlar o‘spirinni chiniqtiradi, dunyoqarashini rivojlantiradi, mustaqil hayotga tayerlaydi, o‘z vataniga muhabbatini kuchaytiradi, uni vatan himoyasiga ham jismoniy ham ruhiy tayyorlaydi; dunyo ko‘rgan kishi dono bo‘ladi.

XX asrning boshlarida Olmoniya, Daniya va Belgiya kabi mamlakatlarda «Sayohatchi o‘quvchilar» harakati paydo bo‘ldi. Uning nizomida o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda og‘ir sharoitli sayohatlardan foydalanish kerakligi qayd etilgan edi. O‘sha davrdagi siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda yoshlarga turistik mashqlarni o‘rgatgan holda ulardan bo‘lajak askarlar tayyorlash maqsadi ko‘zlangan edi. Keyinroq tashkil etilgan Jahon turistik tashkiloti (WTO, WORLD TOURIST ORGANIZATION) 1967 yili quyidagi shior bilan chiqdi: «Turizm –

turli din va tariqatlar a’zolari, ateistlar va diniy qarashlarga qiziqish-tanishish bilan yondashayotgan kishilar orasida yanada samarali uchrashuv va dialoglarni taminlovchi jahon yo‘li».

Demak, turizm insoniy qadriyatlarni rivojlantiradi, shu sababli uni fiziologiya masalalaridan tashqari, shaxs va uning g‘ururini rivojlantirishdagi rekreatsion qayta tiklanish omili sifatida ham ko‘rib chiqish kerak. Inson tinch-osoyishta-xotirjam holatda to‘liq ishonch bilan dialog yuritish imkoniyati mavjud bo‘lgan vaziyatda erkinlik va harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qayta his qiladi va shaxslararo ijobiy munosabatlar o‘rnatadi.

Turizm nafaqat kundalik hayot va ishning bir xilligini to‘xtatish uchun mo‘ljallangan hordiq chiqarish va dam olishdir, bu shuningdek, inson-odamlar va atrof muhitning birligini ta’minlash timsolidir. WTO ning Manilada imzolangan deklaratsiyasining 21-moddasida qayd etilishicha, turizmda ruhiy omillar texnik va moddiy omillardan ustun bo‘lishi kerak. Bunday omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: chegarasiz ekspansiya, maorif, inson qadrining ulug‘lanishi uchun shaxs sifatida ozod qilish, har bir madaniyatning takrorsizligini tan olish va xalqlarning ruhiy merosiga asragan holda munosabatda bo‘lish[48].

Turizmda madaniy turizm alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda asosiy e’tibor o‘zga xalqlarni (o‘zga joylarda yashovchilarning) madaniyati, tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, folklori, hayot tarziga qaratiladi. Madaniy turizm mobaynida insonlar o‘zga xalqlarning madaniyati bilan yanada chuqurroq tanishish maqsadida mahalliy teatrlarga, milliy san’at va xalq ijodiyoti namoyish etiladigan joylarga ko‘proq e’tibor berishadi. Hattoki, ba’zi bir turistlar mahalliy aholi istiqomat qiladigan uylariga mehmon sifatida tashrif buyurishdan voz kechishmaydiki, buni rezidentlarning madaniyati bilan tanishishning eng yaxshi usuli deb hisoblashadi.

Mutaxassislarning fikricha, turizmdan maqsad – dunyo madaniyatini o‘rganish; har xil mintaqalarda yaratilgan insoniy qadriyatlar, me’moriy yodgorliklar bilan tanishish, ulardan zavqlanish, inson yaratgan mo‘jizaviy

[48] https:// vaqt.ucoz.com./O‘zbekiston madaniyat turizmi-Maqolalar to‘plami.

asarlardan ilhomlanish; turli xalqlar madaniyatini qiyosiy o‘rganish; muqaddas diniy ziyoratgohlarni ko‘rish, ulardan ruhlanish, ibodatni bajo keltirish, insoniy burchni ado etish; hamda shular orqali insonlar orasidagi madaniy-ma’rifiy aloqalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat.

Madaniy turizm ixlosmandlari turistik manzillar aholisi tarixi (arxeologiya, etnografiya, o‘lkashunoslik), yashash tarzi va kun kechirish muhitining shart-sharoitlari, milliy hunarmandchilik san’ati kabilarga katta qiziqish bildirishar ekan, bunda mahalliy hayot bilan yaqindan tanishish istagi qanchalik kuchli bo‘lishidan qat’i nazar, bu tanishish qandaydir noqulaylik, qiyinchilik yoki xavf-xatarni boshdan kechirish orqali amalga oshiriladigan bo‘lsa, bu holda turistlar o‘zlarining bunday maqsadlaridan voz kechib qo‘ya qolishadi.

Madaniy turistlarning ba’zilari o‘zlariga o‘xshagan boshqa turistlar guruhida sayohat qilishni yoqtirishsa, boshqalari yakka o‘zlari yoki kichikroq guruhlarni afzal ko‘rishadi. Turistlarning ba’zilari o‘z sayohatlarini o‘zlari rejalashtirishlari, ya’ni, qachon qaerga borish, u yerda qancha vaqt to‘xtab turish kabilar to‘g‘risida o‘zlari mustaqil qaror qabul qilishadi. Ular faqatgina mahalliy aholi vakillaridan biror bir gid-tarjimonni vaqtinchalik yollashlari ham mumkin. Boshqa ba’zi bir turistlar esa, sayohat tashkilotchiligini to‘laligicha tur tashkilotlari - turoperatorlariga ishonib topshirishadi.

Xullas, Madaniy turizm insonlarning o‘zga xalqlar madaniyatlari bilan tanishishga bo‘lgan qiziqishlariga asoslanadi va har bir turist o‘z ehtiyojlarini belgilangan talablar orqali qondirilishini istaydi.

Turistik ehtiyoj (talab)larni qondirish uchun birinchi navbatda turistik resurslar mavjud bo‘lishi lozim. O‘zbekistonda madaniy turizm talablarini qondiruvchi resurslar ko‘plab topiladi. Masalan, Respublikamizda 4000 dan ortiq arxitektura yodgorligi mavjud bo‘lib, (ularning ko‘pchiligi mustaqillik sharofati bilan qayta ta’mirlandi). Turistlar e’tiboriga taklif etilayotgan yodgorliklarning aksariyati XII-XX asrlarga mansub bo‘lishsa, ularning orasida IV-IX asr yodgorliklar ham uchrab turishadi. Buxoro shimoli va shimoli-sharqida joylashgan Sarmish, Nurota tog‘ tizmalarida, Surxondaryo viloyatida ibtidoiy jamoa tuzumiga

xos yodgorliklarni ham uchratish mumkin. Shuningdek, ko‘plab qadimiy shaharlar qoldiqlarida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari, tabiiy qo‘riqxonalarimizda ko‘paytirilayotgan noyob hayvonlar bilan tanishish ham madaniy turizm ixlosmandlarida ko‘plab taassurotlar qoldirishi mumkin. Respublikamiz hukumati shu hollarni inobatga olgan holda ko‘plab xayrli tadbirlarni amalga oshirmoqdaki, bu ishlarning natijasi turizmning rivojlanishiga bevosita turki bermoqda. Masalan, ko‘plab diniy-madaniy ziyoratgohlarimiz kapital ta’mir etildi va mutafakkirlarimizning muborak yubileylari nishonlandi (Al-Buxoriy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Al-Moturidiy, Amir Temur va boshqalar). Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlaring yubileylari, «Alpomish» dostonini yubileyini nishonlash tadbirlari natijasida ko‘plab yodgorliklarimiz yanada ravnaq topishdi. Shuningdek, bolalar sportini rivojlantirish maqsadida qo‘yilayotgan xayrli qadamlarimiz: Universiada – Barkamol avlod o‘yinlari kabi musobaqalar ham madaniy turizm ishqibozlari e’tiboridan chetda qolmasligi tayin.

Ikkinchi navbatda, madaniy turizmning rivojlanishi uchun (boshqa turizm turlari singari) jozibador resurslarning mavjud bo‘lishining o‘zi yetarli emas. Ya’ni, bundan tashqari, mahalliy turistik infratuzilmasi ham yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy Aviakompaniyasi Markaziy Osiyodagi eng yaxshi aviatashuvchi tashkilotga aylantirildi; Toshkent-Buxoro temir ynalishidagi xizmat darajasi ko‘tarildi, Toshkent-Samrqand yo‘nalishida shinam tezyurar poezd qatnovi ishga tushirildi, Toshkent-Samarqand temir yo‘li butunlay elektrlashtirildi; bulardan tashqari Navoi-Qoraqalpog‘iston temir yo‘li qurildi, yaqinda Qoraqalpog‘istondan Xorazmga Amudaryo ustidan o‘tuvchi temir yo‘l ko‘prigi qurib ishga tushirildi. Ushbu ko‘prik qurilishiga O‘zbekiston mamlakatiga temir yo‘l transportida har yili 1 million AQSH dollarini tejab qolish imkoniyatini qo‘lga kiritish asosiy sabab bo‘lgan bo‘lsada, bu tadbirning turistik ahamiyati ham beqiyosdir. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Xorazm kabi viloyatlarda ko‘plab yangi zamonaviy mehmonxonalar qurildi, ko‘pgina aeroportlar

zamonaviylashtirildi. Shular bilan chegaralanib qolinmay, infratuzilmani rivojlantirish borasi boshqa ishlar ham olib borilmoqda.

Uchinchi navbatda, O‘zbekiston madaniy turistik mahsulotini xalqaro va ichki turistik bozorda o‘tkazish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan to‘g‘ri marketing siyosatini yurgiza oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash zarur. Chunki, qo‘shni mamlakatlardan ko‘rsatilayotgan kuchli raqobat sharoitida uzoqlardan keluvchi turistlarni turistik manzilgohlarimizga jalb qilish uchun iste’molchilarni topish, ularni o‘lkamizda aynan nimalar qiziqtirishini va bu qiziqishni qanday usullarda qondirish lozimligini aniqlash, hamda shunga mos tadbirlarni amalga oshirish faqatgina turizm sohasidan xabardor bo‘lgan yetuk marketing mutaxassisininggina qo‘lidan kelishi mumkin. Bu masalaning hal etilishi maqsadida Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida «Xalqaro turizm» fakulteti tashkil etilib, unda turizm tarmog‘i uchun malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, madaniy turizm mamlakatimiz uchun istiqbolli sanalgan turizm turlaridan biridir. Shu sababli, uni rivojlantirish borasida izchil siyosat yuritilmoqda, turizm sohasini rivojlantiruvchi tadbirlar qo‘llab quvvatlanmoqda. Oqilona yuritilayotgan turistik siyosatni o‘lkamizda yangi yaratilayotgan turistik tashkilotlarning soni kun sayin oshib borishidan ham ko‘rsa bo‘ladi.

Turizmni rivojlantirishda e’tiborga olinish lozim bo‘lgan yana bir tomon – turistik resurslarni ulardan kelgusi avlod ham manfaat olishlari uchun saqlab qolish masalasi o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimizda qurilayotgan har bir yangi bino qurilish uslubi, dizayni kabi jihatlari bilan shu atrofdagi boshqa binolarga mos bo‘lishini ta’minlash zarur. +ayta ta’mirlangan mashhur ziyoratgohlarimizda milliy qurilish san’ati an’analariga sodiq qolindi. Endigi masala, xususiy sektor tomonidan tarixiy maskanlarimizda qurilayotgan yangi binolarda ham shu muhit usulidan keskin farqlanishning oldini olishni ta’minlashdir. Shuningdek, tarixiy binolar ta’mirlayotganda uning asl ko‘rinishi saqlab qolish muhimdir. Bunda qayta ta’mirlash bahonasida binoning tashqi bezaklarining hammasini butunlay ko‘chirib, bu bezaklarni yangi qurilish materiallari bilan qaytadan yaratish

binoning tarixiy qadrini tushirib yuborishi mumkin. Chunki, madaniy turizm ixlosmandlarini aynan shu tarixiylikkina jalb etgan bo‘lishi mumkin. Ya’ni, tarix bilan qiziquvchi madaniy turistlarni eski usulda qurilgan yangi bino emas, aynan eski binoning o‘zi ko‘proq qiziqtiradi. Shu sababli, ta’mirlash ishlarini amalga oshirganda bu kabi xatolarga yo‘l qo‘yilishining oldi olinishi zarur bo‘ladi.

So‘zsizki, turistlarni jalb etuvchi tabiiy boyliklarimizni ham saqlab qolinishi muhim ham masaladir. Mamlakatimizda bu borada maxsus choralar ko‘rilayotgani tahsinga sazovordir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston madaniy turizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, uning rivojlanishi O‘zbekistonning xalqaro aloqalarini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Xalqaro aloqalarning rivojlanishi xalqimizning boshqa millatlar bilan yanada yaqinlashtiradi, bu esa, o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi. O‘zaro hamkorlikning kuchayishi O‘zbekistonga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning o‘sishiga olib kelishi mumkin bo‘ladi.

O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari oshirishda temir yo‘l sohasida olib borilayotgan islohotlar ham muhim sanaladi. Jumladan, O‘zbekistonda yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar Buyuk Ipak yo‘li bo‘yidagi betakror madaniy merosga ega shaharlarni bir-biri bilan bog‘lash orqali hududlarda ichki va xalqaro turizm yuksalmoqda. Bu borada, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi “O‘zbekiston temir yo‘llari” aktsiyadorlik jamiyati bilan hamkorlikda turizm guruhlaridagi sayyohlar soni 10 nafardan 24 nafargacha bo‘lgan holda 10 foiz hamda 25 nafardan va undan ortiq bo‘lsa, 15 foizlik chegirmalar berilmoqda. Bayram kunlari esa 50 foiz chegirmalar qo‘llaniladi. Joriy qilingan chegirmalar ommaviy axborot vositalari tomonidan doimiy ravishdan aholiga yetkazishda muhim hamkorlardan sanaladi. Lekin tizimda ba`zi kamchiliklar hm ko`zga tashlanadi. Ayniqsa Farg`ona vodiysida temir yo`l tizimining yaxshi yo`lga qo`yilmaganligiga guvoh bo`lamiz. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi bilan ham doimiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 2017 yil iyun oyidan ichki turizmda Toshkent-Urganch-Toshkent yo‘nalishlari bo‘yicha sayyohlar soni 10 kishidan kam

bo‘lmagan turistik guruhlar uchun aviachiptalar narxiga 5,8 foizlik chegirmalar yo‘lga qo‘yilgan.

Farg‘ona vodiysi turizimning  sohasini rivojlanishi uchun keng imkoniyat va asoslarga ega. Respublikada tayyorlangan atlas to‘qish, yog‘och o‘ymakorligi, pichoqchilik, naqqoshlik, kundakorlik, zardo‘zlik, charmdo‘zlik, gilamchilik, cho‘pondo‘zlik va do‘ppido‘zlik buyumlarininig 70 foizi vodiy mintaqasiga to‘g‘ri kelsa, kashtachilik, gilamchilk, atlas, zardo‘zlik mahsulotlari eksportining 73,8 foizini tashkil etgan holda, kulolchilik mahsulotlarini tayyorlashda yetakchi o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish  va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5242-sonli Farmoni hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Mazkur farmonga muvofiq, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida hunarmandchilik markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Rishton shahri mashhur kulolchilik markaziga aylandi. Xususan, 20 ta ikki qavatli kulollar xonadoni, Rishton tarixi muzeyi, bank xizmatlari markazi bunyod etildi. Har bir kulol xonadonida 6 o‘rinli mehmonxonalar tashkil etilib, chet ellik sayyohlar bu yerda yashab, kulollarning ishi bilan yaqindan tanishishi mumkin[49]. Hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlanishi, turistlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar yildan-yilga Farg‘onada turistlar oqimini ko ‘payishiga xizmat qilmoqda.

Farg‘ona vodiysida turizimning yana bir o ‘ziga xos turi folklor turizimi ravnaq topmoqda. Mamlakatimizga tashrif buyurvchi turistlar faqat tarixiy madaniy yodgorliklarni ko‘rish uchungina emas, balki xalqimizning o‘ziga xos milliy qadriyatlari, urf-odatlari bilan tanishish istagida ham tashrif buyuradilar. Sayyohlarning bu istagini ro‘yobga chiqarishda folklor turizmi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Amalga oshirilgan sotsiologik so‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, Respublikaga kelgan har ikki sayyohdan biri milliy qadriyatlarga qiziqish bildirsa,

[49] https://daryo.uz/2021/02/04/shavkat-mirziyoyev-rishtondagi-kulolchilik-markaziga-tashrif-buyurdi/

40 foiz sayyohlar milliy marosimlarda bevosita ishtirok etishni xohlaydi. Sayyohlar o`z tashriflarini rejalashtirish davomida xalqning o`tmishini, ma`naviy hayot tarzini o`zida aks ettirgan turli xil an`ana va marosimlarda qatnashishni maqsad qilib qo`yadi. Sayyohlikni tashkil etishda ana shu omillarni inobatga olish shart. Chunki biz umumiy turistik qolibdan foydalanishimiz sayyohlarni hayratlanish imkoniyatlarini keskin tushirib yuboradi. Sayyohlarni o`z madaniyatimizga yanda yaqinroq jalb qilish uchun o`zimizning milliy marosimlarimizga qatnashish uchun ularni taklif qilishimiz kerak. Shuningdek, 25 foiz sayyohlar samimiy va dilkash odamlar bilan suhbatlashishni xohlashlarini bildirgan. Bu esa mahalliy aholi bilan suhbatlashish orqali ularning dunyo qarashi, yashash tarzi, kundalik ish faoliyati va xo`jalik hayotini yuritishi haqida ma`lumotlarga ega bo`ladi. Xalqimizning uzoq yillik o`tmishi asosan dehqonchilik bilan bog`liq bo`lganligi sababli urf-odat, uy-joy qurilishi, mehnat qurollari hattoki ko`plab marosimlar dehqonchilik bilan bevosita bog`liqligini ko`rishimiz mumkin. Bu kabi milliy an`analar Farg`ona vodiysining ko`plab joylarida saqlanib qolgan. Vodiyda turizmni rivojlantirish jarayonida yirik turistik obyekt yaqinidagi milliy an`ana va qadriyatlarni saqlab qolgan qishloq va mahallarda chet ellik sayyohlarni qabul qilish uchun tayyor qilish maqsadga muvofiq bo`lgan bo`lardi. Farg‘ona vodiysida yashayotgan aholi o‘zining turli urf-odat, qadriyatlari, marosimlari ega. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysigagina xos bo‘lgan askiya so‘z san’ati alohida ahamiyatga egadir. Askiya so‘z san’ati 2014-yilda YUNESKO ning nomoddiy madaniy boyliklar ro‘yxatiga kirtildi. Hozirgi kunda askiya so‘z san`atining 30 dan ortiq uslublari mavjud [50].

Askiya kechalari ushbu san`atning vodiy turizimning o‘sishida ijobiy ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, askiya so‘z san’anti asosan ichki turizmni rivojlanishiga xizmat qiladi. Lekin O‘rta Osiyoning boshqa davlatlarida o‘zbek tilida so‘zlashuvchi xalqlarning soni oz emasligini hisobga

[50] ich.unesco.org/en/RL/askiya-the-art-of-wit-00971

olsak bu san`at turi qo‘shni davlatlar aholishining yutrimizga madaniy hordiq chiqarish maqsadida kelishlariga o`z hissasini qo`shadi.

2015-yilda YUNESKO ning nomoddiy boyliklari ro‘yxatiga Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan dorbozlik san`ati kiritildi. Andijon viloyatida 8 ta, Namangan viloyatida 11 ta, Farg‘ona viloyatida esa 13 ta dorbozlik jamoalari mavjud. “Qo‘qon minori”, “Vodil chinori” jamoalari nafaqat dorbozlik tomoshalarini shuningdek, yog‘och oyoq, qog‘irchoqbozlik, ot o‘yini, qiziqchilik va mazxarabozlik tomoshalarini namoyish etib kelishmoqda.

Farg`ona viloyatida ichki turizm va xalqaro miqyosda turizmni rivojlanishida bosh omil vazifasini o‘tuvchi ko‘plab moddiy-madaniy arxeologik, arxitektura va boshqa tarixiy obyektlar mavjud. Ularning tarixiylik ahamiyatini saqlab qolish va ular joylashgan hudud infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha Farg`ona viloyat hokimligi, Farg`ona viloyat Madaniy meros boshqarmasi va boshqa mutassadi tashkilotlar tomonidan ta’mirlash va restavratsiya ishlari olib borildi. Xususan,2014-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 15-noyabrdagi Farg‘ona shahrining bosh rejasini amalga oshirish 2012-2015-yillarda ijtimoiy va transport kommunal infratuzilmasi obyektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ – 1641-sonli qaroriga asosan Farg‘ona shahrida keng ko‘lamli qayta tiklash, qurilish, restavratsiya qilish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Fag‘ona shahridagi 1- madaniyat uyi binosi, “ Qirxi ” binosi restavratsiya qilindi. Bundan tashqari Buvayda tumanidagi “Poshsho pirim” maqbarasi, Oltiariq tumanidagi “Do‘sti xudo”, Beshariq tumanidagi “Oq mozor ota” ziyoratgohlaridagi maqbaralar homiylar hisobidan qayta ta’mirlandi[51].

2016-yilda viloyatdagi moddiy madaniy meros obyektlarida restavratsiya tiklash va obodonlashtirish ishlariga 146 mln.so‘m ajratilgan. Jumladan, 2016-

[51] Фарғона вилояти маданий мерос бошқармаси томонидан 2014-2020 йилларда Фарғона вилояатида моддий маданий мерос объектларида реставрация тиклаш ва ободонлаштириш ишлар тўғрисида маълумот. 2021 йил Жорий архив.

yilda Farg‘ona shahridagi Farg‘ona Davlat Universiteti binosi, Qo‘qon shahridagi “Xurjun” madrasasi, Rishton tumanidagi “Xo‘ja Rushnoiy” maqbarasi, Andijon shahridagi “Jome’” me’moriy majmuasi, “Xo‘ja Noib” madrasasi, Namangan shahridagi “Otaulloxon” masjidi to‘liq restavratsiya qilindi. “Mulla Qirg‘iz” madrasasi, Pop tumanidagi “Chodak” masjidi qisman Respublika byudjeti mablag‘lari hisobiga restavratsiya qilindi hamda Uchko‘prik tumanidagi “Xaziniy” maqbarasi ta'mirlandi.Farg‘ona tumanidagi “Xuvaydo” maqbarasi, Buvayda tumanidagi “Poshsho pirim” “Bibi Ubayda” Beshariq tumanidagi “Ummat bobo” maqbaralari homiylar hisobiga to‘liq ta'mirlandi.

2017-yilda obyektlarni ta'mirlash uchun 620 mln.so‘m respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan ajratilgan bo‘lib, Qo‘qon shahridagi “Norbo‘tabek” madrasasiga 560 mln so‘m mablag‘ ajratilib qisman ta'mirlandi. Rishton tumanidagi “Xo‘ja Rushnoiy” maqbarasi 60(olmish) million so‘m sarflanib qayta qurildi va ziyorat qilish uchun topshirildi.Farg‘ona tumanidagi “Xuvaydo”, “Qalbi chin ota” ziyoratgohlari xomiylar tomonidan ta'mirlandi hamda yozgi dam olish ayvonlari qurib berildi. Marg‘ilon shahridagi “Xo‘ja Ma'oz” ziyoratgohida xomiylar tomonidan ta'mirlash-tiklash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, “Jaxr”, “Xazrati Mulla”, “Yetti tut” me’moriy obidalar qisman ta'mirlandi “Uvaysiy” uy muzeyi moddiy madaniy merosi obyektida 25 mln so‘mlik restavratsiya tiklash ishlari amalga oshirildi. Toshloq tumanidagi “Maxsum ota” ziyoratgohi Moddiy madaniy meros obyektiga homiylik asosida 30 mln so‘mlik restovratsiya tiklash ishlari amalga oshirildi. Marg‘ilon shahridagi “Jaxr”, “Xazrati Mulla”, “Yetti tut” me’moriy obidalar qisman joriy ta'mirlandi. Farg‘ona viloyatidagi “Xuvaydo” maqbarasi xomiylar xisobiga to‘liq ta'mirlanishi tugatildi[52]. Ushbu majmua Farg`ona tumani Chimyon qishlog`ida joylashganligini inobatga olsak, bu hudud o`zining solim tabiati bilan mahalliy sayyohlarning sevimli maskanlaridan biri bo`lishga ulgirgan. Ekoturizmning ziyorat turizimi bilan

[52] Фарғона вилояти маданий мерос бошқармаси томонидан 2014-2020 йилларда Фарғона вилоятида моддий маданий мерос объектларида реставрация тиклаш ва ободонлаштириш ишлар тўғрисида маълумот. 2021 йил Жорий архив

birgalikda amalga oshirish imkoniyatining bo`lishi hududga tashrif buyuruvchilar sonini oshishiga xizmat qilishi sir emas.

2018-yilda Qo‘qon shahridagi Kamol qozi, Norbo‘tabek madrasasi Olimjon xoji qabulxonasi, G‘ishtli masjidi, Mahalla masjidi(Xadiya xoji masjidi, Qozi uyi, O‘zbekiston tumanidagi Mo‘yi muborak ziyoratgohi, Uchko‘prik tumanidagi Ziyovuddinxon Doniyolxon (Katta xoja) o‘g‘li Haziniyning ziyoratgohi kabi ob'ektlar ta'mirlanib, jami 3400,9 (3 milliard to‘rt yuz million to‘qqiz yuz ming) so‘m mablag‘ sarflangan.

2019-yilda viloyatdagi madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya qilish uchun Respublika byudjetidan 5720,0 mln so‘m, mahalliy byudjet mablag‘lardan 9831,0 mln so‘m, jami 15551,0 mablag‘ sarflanib, 15 ta obyektlar ta'mirlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 12-13 iyun kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida bergan topshirig‘i va Oltiariq tumanida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayoniga asosan  Katta Kenagas qishlog‘idagi Haziniy tug‘ilib o‘sgan Katta Kenagas qishlog‘idagi uy-muzey va uning yonida joylashgan maqbarada kompleks va mukammal ta'mirlash ishlari olib borilib, ziyoratchilar uchun go‘zal maskanga aylantirildi. Maqbara va uy-muzeyni kapital ta'mirlash va eksponatlar bilan boyitish uchun davlat byudjetidan 1 milliard 900 million so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi  qaroriga asosan Marg‘ilon shahrida  Pursiddiq majmuasi, Said Ahmadxonxo‘ja madrasasi to‘liq ta'mirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi bosh vazirining birinchi o‘rinbosari A.J.Ramatov raisligida o‘tkazilgan 2019-yil 31-yanvardagi №21/1-4023-1-sonli yig‘ilish bayoni  hamda viloyat hokimligining 2019-yil 14-yanvardagi 15/01-49-sonli yig‘ilish bayoniga asosan festivalga tayyorgarlik jarayonida asosan Qo‘qon shahridagi 12 ta madaniy meros ob'ektlari (“Xudoyorxon” o‘rdasi, “Modarixon” maqbarasi, “Jomiy”

masjidi,“Avrat” masjidi, “Dahmai Shohon” maqbarasi, “Dasturxonchi”, “Norbo‘tabek” madrasasi, “Xojibek” madrasasi, “Chalpak” madrasasi, “Alixon hoji” madrasasi,“Miyon Xazrat” madrasasi, “Adabiyot muzeyi” – Sobiq Rus banki binosi) da ta'mirlash-tiklash ishlari olib borildi. Bundan tashqari Marg‘ilon shahridagi Pur Siddiq ziyortagohi, Jahon Otin Uvaysiy yodgorligi hamda Sayid Ahmadxo‘ja madrasasi ta'mirlandi.

2020-yil davomida manzilli dasturga kiritilgan Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan quyidagi madaniy meros obyektlarida ta'mirlash-tiklash ishlari olib borilib, barcha ishlarga 6837,4 (olti milliard sakkiz yuz o‘tiz yetti million to‘rt yuz ming) so‘m mablag‘ sarflandi.

Marg‘ilon shahridagi Uzun masjidi, Qo‘qon shahridagi Qo‘qon shahar adabiyot muzeyi, Internat maktabi binosi, Uchko‘prik tumanidagi Shox Salim maqbarasi, O‘zbekiston tumanidagi Mo‘yi muborak ziyoratgohi, Rishton tumanidagi “Sohibi Hidoya” ziyoratgohi kabi obyektlarda ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqri homiylar mablag‘lari hisobidan Rishton tumanidagi “Xo‘ja Rushnoiy ziyortagohi”da ta'mirlash ishlari olib borilib,restavratsiya qilish ishlariga “SQB Capital” MChJ tomonidan 1,587,0 mln so‘m. homiylik mablag‘lari ajratildi.Amalga oshirilgan ishlar Farg`ona viloyatida turizmning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Farg‘ona vodiysi turizmning ko‘plab yo‘nalishlarida ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lganligiga qaramasdan tizimda hal etilishi kerak bo ‘lgan masalalar mavjud. Xususan, xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan mehmonxonlarning yetishmaligi ma’lum ma’noda turistlar oqimini kamayishiga sabab bo‘luvchi omillardan biridir[53]. Farg‘ona vodiysida turizm sohasida malakali kadrlar yetishmasligi ham bu sohaning muammolardan biri hisoblanadi. Statistik

[53] Rasulov M. F. O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo‘lgan munosabatning transformatsiyasi(1980-2019-yillar) tarix falalri bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2020. – B.70

ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida 37 nafar tarjimonlar gid-tarjimonlik litsenziyasiga ega bo ‘lib[54] bu viloyat miqyosida ozchilikni tashkil qiladi.

Xorijlik turistlar xarid qilgan turli milliy aksessuar buyumlari bojxona postida tarixiylik nuqtai nazardan ekspertizadan o‘tkazish uzoq vaqtni olishi ham turizm sohasi ravnaqi uchun hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalardan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining yanada ravnaq etishida turizm asosiy sohalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu turizm nafaqat xorijliklar uchun balki mahalliy aholi uchun ham ichki turizmning yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

## 3.2. Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmi

Muqaddas joylarni ziyorat qilish ham sayohatning bir turi bo‘lib, u Jahon turizm tashkiloti tomonidan “diniy turizm” deb tan olingan. Turizmning ushbu turi bo‘yicha sayohatga chiquvchilar “ziyoratchilar” deb ataladi. Sayohatga ehtiyoj faqat mahlum dinga ehtiqod qilish natijasida paydo bo‘ladi va dindorlarning bu ehtiyojlarini qondirish maqsadida muqaddas qadamjolarga sayohatlar uyushtiriladi.

Sayohatning bu turi diniy ahamiyat kasb etuvchi joylarga tashrif buyurish bilan xarakterlanadi. Dunyo miqyosida asosiy ziyoratgohlar sifatida Makka va Madina (Saudiya Arabistoni), Banoras (Hindiston), Quddus (Isroil), Lordes (Frantsiya), Vatikan (Italiya)ni ko‘rsatish mumkin[55].

Ziyorat turizmi sayyohlik tarmoqlari ichida serdaromad yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur tarmoq taraqqiyotining jahon tajribasiga e’tibor beradigan bo‘linsa, ziyorat turizmi ko‘proq ichki turizmning muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi. Jumladan, G‘arb davlatlari, asosan xristian dini bilan bog‘liq ziyoratgohlarga alohida ahamiyat bersalar, aholisining asosiy qismi musulmon bo‘lgan davlatlarda ziyorat turizmini bevosita islom dini bilan bog‘lash an’anaga aylangan.

---

[54] O’zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo ‘mitasi Farg ‘ona viloyati hududiy boshqarmasi ma’lumotlari // 2018 yil. Joriy arxiv

[55] Gisbert RinschedeForms of religious tourism.- Regensburg.Annals of Tounrm Research, 1992 Printed in the USA. All rights reserved.– P. 19.

Ziyorat turizmi doirasida ziyoratchilar diniy burch bilan bir qatorda diniy e'tiqodlarini mustahkamlash, yangi ziyoratgohlar bilan tanishish maqsadida turli avliyolar maqbaralariga sayohatlar uyushtirish nazarda tutiladi. Shuningdek, ziyorat turizmi ziyoratchilarning odatiy muhitdan tashqarida joylashgan muqaddas qadamjolarga ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashrif buyurishi tushuniladi. Ziyorat turizmning asosiy yo'nalishi sifatida haj maqsadida amalga oshiriladigan turizm, diniy bilimlarini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan turizm, diniy ziyoratgoh va avliyolar maqbaralariga uyushtiriladigan sayohat turlariga bo'linadi. Bundan tashqari, tadqiqotchi A. Mirzayev ziyorat turizmini muzey turizmi (diniy ahamiyatga ega buyumlar bilan tanishish masadida uyushtiriladigan sayohat turi), tanishuv turizmi (qadimiy diniy e'tiqod bilan bog'liq yodgorliklar bilan tanishtiruvchi sayohat turi), qadamjo turizmi, marosim turizmi hamda maxsus ekskursiyalar (diniy ahamiyatga ega bo'lmagan davlat arboblari, fan va madaniyat xodimlari, harbiy asirlar bilan bog'liq joylarga uyushtiriladigan sayohat turi) ni ko'rsatib o'tgan[56].

Ziyorat turizmi haj maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turidan biroz farq qiladi. Jumladan, haj marosimlari yilning ma'lum oylarida amalga oshirilsa, ziyorat turizmi mavsum tanlamaydi. Ziyorat turizmini rivojlantirishda diniy bayramlar va marosimlar ham muhim ro'l o'ynaydi. Ziyorat safarlariga ko'proq 2–5 nafar yoki undan ko'p guruh bo'lib sayohatga chiqiladi. Ziyorat turizmi sayyohning xohishiga qarab, hatto bir necha oyga cho'zilishi ham mumkin bo'lgan keng qamrovli turizm turi hisoblanadi. Haj maqsadida amalga oshirilgan sayohatdan ziyorat turizmi o'rtasida servis xizmatlari darajasidagi talablarda, ekskursiya yo'nalishlarida, safarlarning cheklangan sanalarida, yosh va mijozlarning ijtimoiy kategoriyasida farqlar mavjud.

Ziyorat turizmi diniy qadriyatlarni, insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida, sayyohlarda ma'nan va

---

[56] Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980 -2018 й)..Дисс... – Т., 2020. – В.76-77.

ruhan poklanish bilan bir qatorda, o‘zaro mehr-oqibat, rahm-shafqat hamda dinlararo bag‘rikenglik tuyg‘ulari mustahkamlanadi. Soha taraqqiyotini ta’minlashda nafaqat xorij davlatlari tajribasi, qolaversa, sovet davri tajribasining ijobiy tomonlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sovetlar davrida ziyoratgohlarga ijobiy munosabat shakllanmagan bo‘lsa-da, ziyorat turizmining maxsus ekskursiya yo‘nalishidangina foydalanilgan. Jumladan, Farg‘ona turizm va ekskursiya byurosi 1970 yilda “Farg‘ona vodiysi arxitektura yodgorliklari” nomli ilmiy ommabop fil'm yaratilgach, Farg‘ona vodiysida 1976 yilda 53 ta tarixiy obidalar, 66 ta jangovar monumental yodgorliklar bo‘ylab turistik marshrutlar ishlab chiqildi[57].

Aytish joizki, Farg‘ona vodiysi ziyorat turizmini rivojlantirish resurslariga ega mintaqa hisoblanadi. Namangan shahri Namangoniy Eshoniy, Andijon shahri esa “Qubbat-ul Islomi Andijon” deb sharaflanishi ham ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish Farg‘ona mintaqaviy inspeksiyasi ma’lumotlariga qaraganda, Andijon viloyatida 74 ta, Namangan viloyatida 17 ta, Farg‘ona viloyatida esa 254 ta ziyoratgohlar davlat muhofazasiga olinganligi qayd etilgan[58].

Biroq, Farg‘ona vodiysidagi mavjud ziyoratgohlar Samarqand, Buxoro va Xorazm ziyoratgohlari singari mahobatli bo‘lmaganligi, turizm infratuzilmasi shakllantirilmaganligi, turistik axborotni tanqisligi kabi omillar ziyorat turizmi rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Izlanishlar natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, vodiydagi ziyoratgohlarning asosiy tariqat vakillari nomi bilan bog‘liq bo‘lganligi, tabiiy shart-sharoit nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda ziyoratgohlar u darajada ulug‘vor qilib barpo etilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, dastlab ziyorat turizmining muhim tarmoqlaridan biri haj turizmiga ham alohida ahamiyat qaratdi. Jumladan,

---

[57] Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараѐнлари ва ҳолати (1980 -2018 й)..Дисс... – Т., 2020. – B.78.

[58] Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi 846-sonli Qarori // Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 maydagi “Movarounnahr” musulmonlar diniy boshqarmasining O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini Saudiya Arabistoniga haj qilishini tashkil etishga yordam berish to‘g‘risidagi murojaati” munosabati bilan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida tashkiliy masalalar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, tibbiy ko‘rikdan o‘tish va zarur mablag‘larni chet el valyutasiga ayirboshlashda ziyoratchilar ko‘plab muammolarga duch kelgan.

Farg‘ona viloyati hokimligining 1992 yil 1apreldagi 62-sonli “Madaniy-ma’rifiy muassasalar binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanishni ma’n etish va madaniyat, istirohat bog‘larining moddiy texnik bazasini yaxshilash to‘g‘risida” gi qarori viloyatda qadamjo va masjid binolardan turizm maqsadida foydalanishda muammolarni keltirib chiqardi. Ushbu qarorning ikkinchi bandiga diniy maqsadlarda qurilgan yaroqli imoratlardan boshqa maqsadlarda foydalanish maxsus ruxsat asosidagina berilishining belgilanganligi, 1989 yilda iyulda Quvasoy, Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlari va Toshloq tumanidagi hamda 1990–1991 yillarda Namangan viloyatida sodir bo‘lgan “diniy-radikal” mojorolar turizm taraqqiyoti dinamikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan bir qatorda, 1991–1994 yillarda vodiyda boshqa millat vakillari migratsiyasining oshishi ham xorij mamlakatlarda vodiy haqida salbiy axborotning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Biroq, bu ziyorat turizmini butunlay rivojlanmadi degani emas, chunki birgina Marg‘ilon shahrida 1993 yilda 38 ta masjidlar ta’mirlangan bo‘lsa, 1994 yilda Farg‘ona viloyati hokimining 182-sonli “Shohimardon qishlog‘idagi madaniy-ma’rifiy maskanlarni ta’mirlash va obodonlashtirish to‘g‘risida” qarori asosida, Shohimardon, Yordon, Ko‘li Qurbon qishloqlaridagi qadamjolar va Hazrat Ali maqbarasida ta’mirlash ishlari olib borish uchun 7 mln so‘m mablag‘ ajratildi. Biroq, mustaqillik tufayli ma’muriy chegaralanish, Shohimardon anklavida yo‘l infratuzilmasi va oziq-ovqat yetkazib berish, xizmat ko‘rsatishdagi muammolar Shohimardon anklavida turizmni rivojlanishini amalda to‘xtatib qo‘ydi.

“Shohimardon– Yordon” dam olish maskanida tartibsiz dam olish, qurilish va xo‘jalik faoliyati ta’sirida noyob tabiiy xususiyatini yo‘qotdi[59].

Shuningdek, Andijon viloyatida 1993 yilda Zahiriddin Muhammad Boburning Qobul va Agradagi qabrlaridan tuproq keltirilib Andijon shahridagi 300 gektar maydonni egallagan Bog‘ishamol bog‘ida uning ramziy maqbarasi, haykali va muzeyi ham barpo etildi268. Farg‘ona vodiysida Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liq 14 ta qadamjolar va uning yurgan Toshkent – Qo‘qon – So‘x – Quva – Andijon – Axsikent – Toshkent shaharlari bo‘ylab turistik marshruti ishlab chiqildi. Tur marshrutlarga Andijon shahrida Andijon qal’a muzey qo‘riqxonasi, Andijon viloyat teatri, A. Bakirov nomli yoshlar teatri hamda “Lola” qo‘g‘irchoq teatri, Andijon viloyati o‘lkashunoslik muzeyi ham kiritildi[60]. Sayyohlarni qabul qilish uchun barcha qulayliklarning yaratilganligi nafaqat ichki turizmni rivojlantirishda, shuningdek, yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiqlik va milliy iftixor hissini yuksaltirishga xizmat qildi.

O‘zbekistonga kelgan sayyohlarni 70 foizdan ortig‘i sog‘inch turizmi doirasida kelishi hamda 1991–1994 yillarda respublika bo‘yicha ko‘chib ketganlarning 45 foizi vodiyga to‘g‘ri kelishini inobatga olinsa, yoshligi o‘tgan, ota-onalari va yaqinlari qabrlarini ziyorat qiluvchilar salmog‘i katta ekanligini ko‘rish mumkin. Jumladan, Qo‘qon shahri, Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi “Yaponlar qabristoni”, Quvasoy shahridagi “Yapon asirlari qabristoni” kabi mashxur qadamjolar ham mavjud bo‘lsa-da, mustaqillikning dastlabki yillarida ushbu qadamjolar turizm marshrutlari tarkibiga kiritilmadi. Bundan tashqari, ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoit yaratilmagani, sayyohlik bojlari, mehmonxona narxining qimmatligi, MDH davlatlardan kelgan sayyohlar ham xorijliklar bilan tenglashtirilganligi tufayli yaqin qarindoshlarini, ota-onalari va yaqinlari qabrlarini ziyorat qilish uchun kelganlar mehmonxona xizmatlaridan

---

[59] Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980 -2018 й)..Дисс... – Т., 2020. – B.81

[60] Андижон вилояти маданий мерос бошқармасининг жорий архив маълумотлари.

foydalanmadi. Bu esa turizmdan keladigan daromadning oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq, bu ziyorat turizmining maxsus ekskursiya yo'nalishini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1999 yilda Yaponiya va Italiyadan kelgan turistlar orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijasiga ko'ra, 74 foiz sayyohlar Farg'ona vodiysidagi qadimiy shaharlarda ko'ngilochar markazlar faoliyatini qoniqarsiz deb baholagan hamda xalqaro standartlarga javob bermasligini qayd etilgan[61]

Farg'ona vodiysida ziyorat turizmini rivojlantirishda islom dinining ravnaqida muhim o'rin tutuvchi Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy merosi ham turizm rivojida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 yanvardagi "Burhoniddin al Marg'inoniy tavalludining 910 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida, Rishton tumani va Marg'ilon shaharlarida yodgorlik majmualari bunyod etildi.

2005 yil 9 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Marg'ilon shahrining 2000 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Farmoni hamda YuNESKOning Parijda o'tgan 33- sessiyasining ayni shu haqdagi qarori doirasida 2007 yil Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyi xalqaro miqiyosida nishonlandi va Marg'ilon shahri logotipi ishlab chiqildi. Ushbu tamg'ada 3 ta gumbazsimon hoshiyalar qadim moziyga nazar ma'nosini anglatsa, pastdagi zina shaklidagi uchta chiziq kelajakka intilishni, yuqoridagi va pastdagi hoshiyalarning tutashganligi o'tmishsiz kelajak yo'q ekanligini anglatadi. O'rtadagi lavhga qo'yilgan kitob "Hidoya" asarining ramzidir. Ushbu kitobdan chiqayotgan olov yorug'ligi ushbu asarning islom huquqini o'rganishda qo'shgan salmog'ini anglatadi"[62].

Bugungi kunda Marg'ilon shahrida ziyorat turizmi rivojlanmoqda. Marg'ilon shahrida Burhoniddin Marg'inoniy nomi bilan bog'liq Pir Siddiq majmuasi o'zining betakror ganchlari, moviy gumbazi bilan xorijlik sayyohlarni ham

---

[61] Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараѐнлари ва ҳолати (1980 -2018 й)..Дисс... – Т., 2020. – В.82
[62] Мирзааҳмедов Р. Марғилон замини жавоҳирлари. – Фарғона:, Фарғона, 2014. – Б. 33.

hayratini oshirib kelmoqda. Shuningdek, ushbu me’moriy obida o‘zining tinchlik elchisi-kabutarlari bilan ham mashhur[63].

Marg‘ilon shahrining ko‘rki hisoblangan va XVIII asr o‘rtalarida qurilgan Pir Siddiq (Kaptarxona) maqbarasi shahar tarixi, jumladan, vodiyda islomning tarqalishi tarixi haqida ma’lumot beruvchi me’moriy obida hisoblanadi. Me’moriy yechimga ko‘ra, maqbara bir xonali, to‘rt burchakli peshtoq-ravoqli va sag‘anadan iborat uyg‘unlik hosil qiladi. Marg‘ilonliklar orasida Pir Siddiq maqbarasi nomi bilan bog‘liq quyidagicha afsona mavjud: unga ko‘ra, bir kuni avliyo Pir Siddiq uni ta’qib qilayotgan dushmanlardan qochib, bir g‘orning ichiga yashirinadi. SHunda kaptarlar bu g‘orning og‘ziga o‘z inlarini qurib, g‘orga kiriladigan yo‘lni yopadilar. Pir Siddiqni ta’qib qilib kelgan dushmanlar g‘or og‘zida kaptarlar uya qurib yashayotganini ko‘rib, “bu yerda odamzod bo‘lishi mumkin emas, aks holda kaptarlar bunday tinch o‘tirmagan bo‘lardi”, - deb bu yerdan jo‘nab ketishadi. Kaptarlar shunday aqlli harakatlari bilan Pir Siddiqni dushmanlardan qutqarib qolgan ekan. Majmuadagi kaptarlarga kelsak, xalq orasida ularga ham taalluqli qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Kaptarlar bu yerning qadimiy ilohiy jonzotlari deb hisoblangan, shu sababli ularga alohida e’tibor bilan qaralgan. Jumladan, xalq orasidagi afsonalardan birida go‘yoki Pir Siddiq o‘zi bilan bir juft kaptarni Arabistondan olib kelgan, bu kaptarlar muqaddas hisoblanib, ularni o‘ldirish yoki shikast yetkazish gunoh deb qaralgan va aksincha, ularga don-dun berib, bemalol yashashlari hamda ko‘payishlari uchun sharoit yaratib berganlar. Marg‘ilon xalqi kaptarlarni muqaddas hisoblab, e’zozlaganiga shubha yo‘q, chunki iqtisodiy qiyinchilik, ocharchilik davrlarida ham odamlar kaptarlarni tutib yemaganlar. Shuning uchun, kaptarlar bu yerda asrlar davomida o‘zlaridan-o‘zlari ko‘payib yashab kelmoqda va majmuaning o‘ziga xos ramzi bo‘lib qolgan.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, maqbara ichidagi sag‘anani Farg‘ona vodiysida arablar istilosi davrlariga tegishli deyish mumkin. Sag‘ananing ustiga

---

[63] Расулов М.Ф, Қодиров Ш.М. Фарғона вилояти зиёратгоҳлари тарихидан лавҳа. Ўтмишга назар/ Взгляд в прошлое / Look to the past. №8 (2021) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-8

qurilgan maqbara esa XVIII asr o‘rtalariga oid. Me’moriy uslubi va unda ishlatilgan qurilish ashyolariga qaraganda, maqbaraning qurilishi o‘sha davr qurilish inshootlari uslubiga mos keladi. Davrlar o‘tishi bilan maqbaraning atrofida masjid, darvozaxona, kaptarxona, minora kabi binolar qurilib, yaxlit bir me’moriy majmua paydo bo‘lgan. Me’moriy tuzilishiga ko‘ra, majmuadagi masjid binosining qurilishi taxminan XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Masjid binosi oldida joylashgan minora (hozirda mavjud emas) esa, 1920 yilda qurilgan. Bu haqda kirish eshigining tepasiga g‘ishtdan terilgan yozuvsana (lavha) dalolat beradi. Yerlik aholining hamda arxitektor Veronika Leonidovna Voroninaning “Farg‘ona viloyati xalq me’morchiligi” (1940 y.) asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, minora marg‘ilonlik Usta-Kichik degan shaxs tomonidan qurilgan. Sobiq ittifoq davrida mutabid tuzumning mafkuraviy siyosati Pir Siddiq majmuasini ham chetlab o‘tmadi. Majmuaning darvozaxonasi orqasidagi ikki qavatli bino buzib tashlangan, natijada darvozaxona peshtoqi ham zararlanib, yarim vayrona holatiga tushib qolgan. Majmuaning buzilmay saqlanib qolgan binolaridan esa, omborxona sifatida foydalanilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida bu binolarga Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan rusiyzabon aholi joylashtirilgan. Majmuada oxirgi qurilish ishlari 1956 yilda bajarilgan[64].

1990 yillarga kelib majmuada dastlabki ta’mirlash ishlari boshlangan. Hozirgi kunda Pir Siddiq majmuasi davlat muhofazasiga olingan. Shuni aytish mumkinki, respublikada, xususan, Farg‘ona vodiysida aziz avliyolar, piru komillar abadiy qo‘nim topgan ko‘plab ziyoratgohlar hali to‘liq o‘rganilib, yakuniy ilmiy xulosaga kelingani yo‘q.

Majmuaning musulmon olamida mashhurligining eng asosiy sabablaridan yana biri, nafaqat uning me’moriy qiyofasi, shuningdek, Burhoniddin Marg‘inoniy 1178 yilda Pir Siddiq majmuasida 40 kun chillada o‘tirib, 13 yil ro‘za tutib

[64] Расулов М.Ф, Қодиров Ш.М. Фарғона вилояти зиёратгоҳлари тарихидан лавҳа. Ўтмишга назар/ Взгляд в прошлое / Look to the past. №8 (2021) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-8

“Hidoya” asarini yozib tugallagan. Bugungi kunda Malayziya, Pokiston, Indoneziya va arab davlatlari shariat mahkamalarida “Hidoya” asari asosiy qo‘llanma vazifasini bajarib kelayotganligi tufayli, Burhoniddin Marg‘inoniy tug‘ilib o‘sgan yurtini ko‘rish istagi musulmon ziyoratchilarda yildan-yilga oshib bormoqda. Bu o‘z navbatida, ziyorat turizmini rivojlanishiga xizmat qildi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ziyorat turizmining maxsus turlari sifatida ilmiy turizm (Burhoniddin Marg‘inoniy va uning avlodlari ilmiy merosini targ‘ib qilish maqsadida simpozium, xalqaro konferentsiyalar, uchrashuvlar o‘tkazish) maqsadida 23 sentyabr “Burhoniddin Marg‘inoniy” kuni sifatida belgilangan bo‘lsa-da, Marg‘ilon va Farg‘ona shaharlari hali xalqaro miqyosda yirik konferentsiyalar tashkil etish darajasidagi infratuzilmaga ega bo‘lmaganligi sababli asosan, Toshkent va Samarqand shaharlarida o‘tkazib kelinmoqda.

Ziyorat turizmining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan tanishuv turizmini rivojlantirish bo‘yicha ham Farg‘ona vodiysi katta potentsialga ega. Bu turning yo‘lga qo‘yilishi mamlakatda vijdon erkinligini kafolatlanganligini namoyish qilish hamda diniy erkinlik bo‘yicha imidjini saqlab qolish va uni yaxshilashda qadimiy diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq yodgorliklar ham turizm industriyasiga olib kirilgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida qadimiy diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq turli buyumlar Quvasoy shahri Arsif qishlog‘idagi Arktepa va Farg‘ona tumani hududidagi Mug‘poshsho shahristonidan topilgan. Ushbu arxeologik yodgorliklar bo‘ylab, Farg‘ona viloyatida joylashgan “Al Ferganiy” turistik firmasi Qirg‘iziston, Tojikiston, Xitoy, Janubiy Koreya davlatlaridan 2017–2018 yillar davomida kelgan 200 nafardan oshiq sayyohlarga tanishtirildi. Farg‘ona viloyatida joylashgan Quva shahri qadimda buddizm keng tarqalgan hamda VII–VIII asrlarda buddizmning g‘oyaviy markaziga aylangan. Vodiy aholisi qadimda buddizmning vajayana mazhabiga e’tiqod qilgan. 2018 yilda Farg‘ona vodiysiga Sharqiy Osiyo davlatlari sayyohlarini jalb etish maqsadida, “Qadimiy buddaviylik manzilgohlari bo‘ylab” tematik sayohat marshrutlari tashkil etildi. Marshrut davomida Quva

shahristoni va Karkidon suv ombori hududidagi qadimiy buddaviylik stupalari topilgan hududlarga sayohatlar uyushtirildi.

Namangan viloyati ham ziyorat turizmining tanishuv turlarini rivojlantirish imkoniyati katta hududlardan biridir. Jumladan, viloyatda qadimiy diniy e’tiqodlardan zardushtiylik dini bilan bog‘liq bo‘lgan mug‘xonalar Kosonsoy shahri, Parda Tursun, G‘ova, Chust, Chodak qishloqlarida mavjud. Mug‘xonalar tekis toshlardan chodir shaklida qurilgan uy bo‘lib, tepa uchi teshik, janub tomonda tosh yo‘lak va eshigi bor. Unga sakkiz-o‘n kishi bemalol sig‘ishi mumkin. Aslida bu tosh uy qabila boshlig‘ining xonaqohi bo‘lgan. Xonaqohning kunchiqar tarafida o‘yma xandaq bo‘lib, unga jasad hamda marhumga atalgan ozuqa, qurol-yarog‘lar, taqinchoqlar qo‘yilgan, so‘ng yassi toshlar bilan berkitilgan.

2018 yil Namangan viloyatidagi zardushtiylik diniy qadamjolari joylashgan Chodak – Chust – G‘ova – Parda Tursun – Kosonsoy hududlari bo‘ylab “Zardushtiylik manzilgohlari bo‘ylab sayohat” 3 kunlik mavzuli marshrutini yo‘lga qo‘yilishi qadimiy diniy e’tiqodlar bilan tanishishga qiziquvchi sayyohlar oqimini oshishiga olib keldi[65]. Bunday sayohat marshrutlarini Farg‘ona vodiysida rivojlantirish oson kechmadi. Buning asosiy sababi mavjud resurslar to‘g‘risida maxsus albom-kitoblar chop etilmaganligi, ommaviy axborot vositalarida hamda internet tarmoqlarida muntazam reklamalar berib borishga e’tibor qaratilmaganligi edi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “Al Ferganiy” tur firmasi tomonidan amalga oshirilgan sotsiologik so‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, ziyorat turizmi doirasida Farg‘ona vodiysiga tashrif buyurgan sayyohlar asosan, kunduz kunlari ziyorat qilishsa, kechki vaqtlarda park, teatr, shou tomoshalarni ko‘rishni xohlashadi. Amalda teatr tomoshalari kunduz kunlari jadval asosida namoyish etiladi. Bu o‘z navbatida ziyorat tur marshrutlar dasturlariga kiritishda muammolarni keltirib chiqardi.

---

[65] Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараѐнлари ва ҳолати (1980 -2018 й)..Дисс... – Т., 2020. – B.89

Ziyorat turizmi tematik ko‘lamiga ko‘ra xalqaro, milliy hamda mahalliy ko‘rinishga ega bo‘lib, vodiyda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lum kasb-korlarga ixtisoslashgan ziyoratgohlar ham mavjud. Ammo ulardan turizm industriyasida foydalanishda bir qancha omillar to‘laqonli soha rivojini ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda. Jumladan, mahalliy ziyoratchilar Marg‘ilon shahridagi Sa’d ibn Vaqqos ziyoratgohini ziyorat qilishlarini inobatga olgan holda Qo‘qon, Andijon, Shahrixon, Qorasuv, Chust pichoqchilik markazlarida tayyorlangan suvenir pichoq va temirchilik buyumlari savdosi yo‘lga qo‘yilmagani hamda tikuvchilar Buvayda tumanidagi Bibi Ubayda ziyoratgohida milliy kashta, zardo‘zlik, ipak mahsulotlar bilan savdo qiluvchi maxsus savdo majmualari va hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil etilmagani, marketing siyosati yo‘lga qo‘yilmagani, iqtisodiy tahlillar asosida istiqboli belgilanmagani ham mintaqa imkoniyatlariga ishonchsizlik bilan qarash holatlari kuzatildi. Ziyorat turizmining muvaffaqqiyati axborotga ehtiyoj qondirilmaganligi tarmoq menejmentini asosiy muammolaridan biri bo‘lib qoldi.

2017 yil O‘zbekiston ziyorat turizmi assotsiatsiyasi tashkil etilgandan so‘ng, ushbu turizm tarmog‘i uchun maxsus diniy va dunyoviy bilimlarga ega gid-tarjimonlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilishi ziyoratchilar orasida mamlakatimiz aholisi diniy qarashlari haqida noto‘g‘ri tasavvurlar paydo bo‘lishining oldini olish maqsadida tashkil etilgan bo‘lsa-da, sohada malakali mutaxassislar yetarli darajada emasligi ziyorat turizmini rivojlantirishda ma’lum ma’noda to‘siq bo‘lmoqda.

2017 yil 13 dekabrda O‘zbekiston ziyorat turizmi delegatsiyasi Malayziyada bo‘lib, O‘zbekistonning ziyorat turizmi imkoniyatlari namoyish etildi. Natijada, Malayziya turistik kompaniyalari O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari bilan bir qatorda Farg‘ona vodiysining muqaddas ziyoratgohlariga ham qiziqish bildirdi. Malayziya va Indoneziya kabi davlatlardan keluvchi ziyoratchilar asosan, islom dinining ilk bor O‘rta Osiyoga kirib kelishi davri bilan bog‘liq ziyoratgohlar qiziqtirib kelayotganligini inobatga olgan holda, Andijon viloyati Jalaquduq tumanida joylashgan Qutayba ibn Muslim ziyoratgohi milliy me’morchilik an’analari asosida qaytadan bunyod etildi. Qutayba ibn Muslimning

yaqinlari nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar Qo‘nd qishlog‘ida Qutayba ibn Muslimning ayoli “Sulton Ena” ziyoratgohi, Chashma qishlog‘ida “Chashma buva mozori” va Xo‘jaobod tumani Yor qishlog‘idagi “Qambar ota” ziyoratgohlari ham islom dinining ilk davriga mansub qadamjolar bo‘lib, ushbu ziyoratgohdan nafaqat ichki turizmni rivojlantirishda, qolaversa, Qutayba ibn Muslimning islom dinining yoyilishidagi o‘rnini bilgan holda tashqi turizmni rivojlantirishda ham foydalanilmoqda. Shuningdek, Andijon shahriga islom dininingkirib kelish davriga mansub Mirpo‘stin ota ziyoratgohi ham o‘ziga xos majmuadan iborat bo‘lib, tarkibiga masjid, choyxona, shifobaxsh buloqlar, sayilgohdan iborat. Dam olish kunlarida o‘tkaziladigan xalq sayillarida qiziqchi, hofiz, dorboz hamda qo‘g‘irchoqbozlarning ko‘rgazmali chiqishlari turizm rivojida muhim omil bo‘lmoqda. Farg‘ona viloyatidagi Shohimardon qishlog‘ida Hazrat Alining dunyodagi yetti qabridan biri joylashgan. Arab xalifaligining to‘rtinchi xalifasi Ali ibn Abu Tolibning haqiqiy qabri Iroqning Najaf shahrida joylashgan[66]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi “2018–2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining yettinchi va sakkizinchi bandlari ijrosini ta’minlash maqsadida “Shohimardon erkin turistik zonasi” tashkil etildi. Hazrat Alining maqbarasi ham obodonlashtirildi. Shohimardon hududiga sayyohlarni jalb qilish maqsadida bojxona postida yashil va qizil yo‘laklar tashkil etildi. 2018 yil iyun oyida amalga oshirilgan xatlov natijasida 24 ta dam olish uylari faoliyati qayta yo‘lga qo‘yildi.

Farg‘ona vodiysidagi aksariyat ziyoratgohlar asosan, shifobaxsh buloqlar joylashgan hududlarda joylashganligi tufayli ziyorat turizmining marosim turini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlariga ega ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, Farg‘ona shahri yaqinidagi Sovurbuloq, Quvasoy shahri Arsif qishlog‘i, Shohimardon qishlog‘idagi Chakkatomar bulog‘iga hamda Farg‘ona tumanida joylashgan

---

[66] Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараѐнлари ва ҳолати (1980 -2018 й)..Дисс... – Т., 2020. – B.88

Sadkak ota ziyoratgohlarida ziyoratchilar shifobaxsh buloqlardan foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos an’analar shakllangan[67].

Andijon viloyatida esa Sariqsuv, Uchbuloq, Tuzluq momo, Qambarota, Imomota kabi 30 ga yaqin buloqlarga ega ziyoratgohlar turistik marshrutlar reestriga kiritildi. Andijon viloyatidagi “Fozilmon ota” ziyoratgohi va bulog‘i xorijlik sayyohlarning e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Ziyoratgoh maqbara va sharqona uslubdagi 250 o‘rinli ayvondan iborat bo‘lib, ziyoratchilar uchun imkoniyatlar yaratilgan. Arabiston, Italiya,Germaniya, Xitoy, Koreya, Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qirg‘iziston va Qozog‘iston kabi davlatlardan tashrif buyuruvchilar soni bir kunda 200-250 nafarni tashkil qilmoqda[68].

Ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida 2017 yilda milliy uslubdagi choyxona, sanitariya-gigiena maskanlari va zamonaviy kemping ham barpo etildi. Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilayotgan bo‘lsa-da, biroq ziyoratgohlarning asosiy qismi rekreatsion jihatdan qulay joyda joylashganligiga hamda tarixiy tajribaga ahamiyat qaratilmadi. 2018 yil 27 avgustda Farg‘ona viloyati turizmni rivojlantirish boshqarmasi viloyatdagi rekreatsion mintaqalar xatlovi amalga oshirildi. Xatlov natijasida viloyatda shifobaxsh buloqlar joylashgan 14 ta rekreatsion mintaqa qayd etildi[69].

Bugungi kunda ziyorat turizmi doirasida tariqat ulomalari nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlarni ziyorat qilishga ham qiziqish kuchayib bormoqda. Tariqat vakillari bilan bog‘liq sayohat tariqat olamida “suluki sayr” iborasi bilan uchraydi. Ayni damda birgina Naqshbandiya tariqati Hindiston, Pokiston, Malayziya, Turkiya qolaversa, G‘arbda keng tarqalganligini301 hisobga olgan holda Farg‘ona vodiysidagi tariqat vakillari nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlarga “suluki sayr” ziyorat turlari doirasida ziyoratchilarni jalb etish salohiyati katta ekanligi aniqlandi.

---

[67] Саксонов Т. Муқаддас жойлар – хурофот ва бидъат ўчоғи –Тошкент:, Медицина, 1986. – Б. 11.

[68] Ҳусанов С. Олти асрлик булоқ // Andijonnoma.2017, 2 март. -№ 29. – Б. 3.

[69] Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараѐнлари ва ҳолати (1980 -2018 й)..Дисс... – Т., 2020. – B.90

Jumladan, Namangan shahrida dastlabki 5 qirrali poydevor qismi islomdagi 5 shartni, keyingi 7 qirrali qismi iymondagi 7 shartni ifodalaydigan Mulla Bozor Oxund maqbarasi ziyoratga kelgan har qanday sayyohni hayratlantira oladi. Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanidagi Naqshbandiya tariqatining mashhur vakillaridan Xaziniy ziyoratgohi, Buvayda tumanidagi “Poshshopirim” ziyoratgohi “suluki sayr” ziyorat maskanlariga kititish mumkin.

2016 yil turistlar jalb etilishi belgilangan 27 ta madaniy tarixiy obidalar qayta ta’mirlanib, ziyoratchilar uchun barcha qulayliklar yaratildi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ushbu ziyoratgohlarning obodonlashtirilishi, vodiyga tariqat ulomalari nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlarga qiziquvchi sayyohlar oqimining oshishiga olib keldi. Jumladan, Farg‘ona vodiysiga asosan, Rossiya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Xitoy, Janubiy Koreya va Arab davlatlaridan sayyohlar oqimi oshishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyati Pop tumani aholisining bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 11 iyundagi 438-sonli qaroriga binoan, “Chodak erkin turistik zonasi” tashkil etildi. Qaror ijrosini ta’minlash uchun 586 157 mln. so‘m mablag‘ ajratildi[70]. Chodakda tariqat vakillari nomi bilan bog‘liq to‘rtta ziyoratgoh mavjud. Qishloqdagi Shayhi Zinda Ali va Ismoil Otoyi ziyoratgohlarida ziyoratchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida nomozxona, zamonaviy sanitar-gigienik maskanlar barpo etilgan.

Farg‘ona viloyatining Rishton tumanidagi Farg‘ona viloyati hokimining 2017 yil 1 apreldagi 168-sonli qaroriga binoan, ziyoratchilar uchun barcha qulayliklar yaratish maqsadida Xo‘ja Xizr ziyoratgohi hududida hunarmandchilik buyumlari bilan savdo qiluvchi majmualari barpo etildi. 2017 yil 15 avgustdagi Vazirlar Mahkamasining 19–20 avgust kunlari umumxalq hasharlari o‘tkazish to‘g‘risidagi 903-sonli farmoyishi doirasida Farg‘ona viloyatidagi ziyoratgohlarni

[70] Наманган вилоти ҳудудий бошқармасининг Чодак қишлоғида туризмни ривожлантириш тўғрисида қарор ижроси маълумотлари.//жорий архив

obodonlashtirish maqsadida 2 mlrd. 478 mln. mablag‘ to‘plandi. To‘plangan mablag‘lar hisobidan xorijlik sayyohlarni ham jalb etish maqsadida Rishton tumanidagi Xo‘ja Ilg‘or ziyoratgohida Rishton kulolchilik muzeyi ham tashkil etildi[71]

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, Farg‘ona vodiysidagi ziyoratgohlarning asosiy qismi bevosita tasavvuf ta’limoti vakillari nomi bilan bog‘liqligi sohada hali ishga solinmagan imkoniyatlar talaygina ekanligini ko‘rsatmoqda. Spuningdek, aholisining asosiy qismi musulmon bo‘lgan davlatlarda tasavvuf ta’limoti marosimlari doirasida amalga oshiriladigan “sayiru suluk” marosimlarini amalga oshirish hamda mashhur ziyoratgohlarni ko‘rishga qiziquvchi ziyoratchilar ko‘pligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish kerakki, Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yetarli bo‘lsa-da, mintaqada bu turizm sohasining rivojlanishi birmuncha sust kechdi. Bunga salbiy omillar sifatida quyidagilarni sanab ko‘rsatish mumkin: turistlarning axborot ehtiyoji qondirilmaganligi; turizm infratuzilmalarining yetishmasligi; konvertatsiya hamda turizm sohasidagi byurokratik to‘siqlarning haddan ziyod ko‘pligi. Biroq, Farg‘ona vodiysida ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha islohotlar bosqichma-bosqich o‘zining ijobiy natijalarini ham ko‘rsatmoqda.

## 3.3. Mustaqillik yillarida Axsikent madaniy merosini saqlashga doir yangicha yondashuvlar

O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Zero, bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, mamlakatda ziyorat, ekologik, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida

---

[71] Фарғона вилояти зиёратгоҳларини ободонлаштириш ишлари ижросини бажарилиши тўғрисида маълумотлари.//жорий архив

e'tibor qaratish mumkinMamlakatimizda moddiy madaniy meros obyektlari, xususan, tabarruk qadamjolarni, O‘zbekiston shaharlarining tarixiy qiyofasini saqlab qolishda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, tarixiy va me’moriy yodgorliklarni butun insoniyat uchun qimmatli osori atiqalar sifatida asrab-avaylash va qayta ta'mirlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Turizm sohasida imkoniyatlardan to‘liq foydalanish maqsadida 1991-yilda Toshkent sayohatlar byurosi qoshida turli mamlakatlardan tashrif buyuradigan sayyohlar uchun turizm yo‘nalishlaridan kelib chiqib, turistik mashrutlar tashkil etilgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari turizmni rivojlantirishda muhim hisoblanib, aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Yangi turistik yo‘nalishlar ochishda mamlakatdagi betakror tabiat, go‘zal dam olish zonalari
imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.  Bugungi kunda turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini hisobga olib, mamlakatning salohiyati, geografiyasi, tarixi va bugungi kunidan kelib chiqib, turizmning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish har qachongidan ham muhimdir. Hisobkitoblarga ko‘ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizm sohasida bir, unga turdosh bo‘lgan tizimda esa ikki yangi ish o‘rni yaratilishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki shu zaminda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart.

O‘zining ikki ming yillik tarixiga ega bo‘lgan Namangan zamini turizm o‘choqlari, tarixiy yodgorliklari, moddiy madaniy meros obyektlariga boy bo‘lgan muqaddas zamin sifatida nom qozongan. Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug‘tepa kabi me’moriy yodkorliklar o‘tmishda ushbu hududda o‘ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi. Ma'lumot o‘rnida, qadimiy shahar xarobasi bo‘lmish Axsikent yodgorligi To‘raqo‘rg‘on tumani, Shahand qishlog‘ida, Sirdaryoning o‘ng sohilida

joylashgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, Axsikat shahri miloddan avvalgi III-II (3-2) asrlarda vujudga kelgan, IX-X (9-10) asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti hisoblangan. 1621 yilda yuz bergan zilzila oqibatida vayron bo‘lgan. Axsikatni arxeologik jihatdan o‘rganish ishlari XIX asr oxirlari XX -asr boshlaridan boshlangan.

Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome’ masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o‘rganilgan.

Respublika Prezidenti topshirig‘iga muvofiq 2017 yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo‘yicha ulkan ishlar boshlandi. “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va xorijdagi sayyohlik ko‘rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o‘tkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o‘rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan. Ayni kunda shu asosda Farg‘ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

“Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Quyidagilar maxsus tuziladigan direksiyaning vazifalari etib tayinlangan;

- majmuani lozim darajada muhofaza qilish, but saqlanishini ta’minlash va belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan arxeologlar tomonidan arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini tashkil etish,

chuqur ilmiy arxeologiya tadqiqot natijalari asosida majmuaning ilmiy-tarixiy konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

- qadimiy Axsikent shahriga oid Respublikamiz va xorijda saqlanayotgan manbalarni malakali mutaxasis va ekspertlar, olimlarni jalb etgan holda atroflicha tadqiq etish, ular haqidagi batafsil ma'lumotlar bazasini yaratish va muntazam yangilab borish, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish, nashr materiallarini tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalalari orqali keng targ'ib etish;

tarixiy-ilmiy asoslar bo'yicha qadimiy Axsikent shahrining maketlarini tayyorlash, arxeologiya ashyolari, qadimiy qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, osori-atiqalar, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, kitob va to'plamlar, video va fotohujjatlar kabi boshqa manbalar hisobidan muzeylashtirilgan ekspozitsiya-ko'rgazma yaratish, yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot-resurs markazi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va boshqalar.

Direksiya rahbari etib tarix fanlari nomzodi, dotsent Tohirjon Qozoqov tayinlandi. Uning tashabbusi bilan ko'plab yangi loyihalarga qo'l urildi. Jumladan, majmuada turizmning 20 dan ortiq turini yo'lga qo'yish taklif qilindi. Shulardan birinchi galda tarixiy turizm(arxeologiya, muzeyshunoslik), gastronomik(milliy taomlar, master klasslar(milliy taomlar tayyorlash chet elliklar uchun),baliq ovi va baliq mahsulotlarini iste`mol qilishni tashkil etish),ekoturizm(daryo turizmi, yovoyi cho'l tabiati, tog`), agroturizm(bog`dorchilik, poliz, meva), sog`lomlashtirish turizmi(qum, noan`anaviy davolash, shifobaxsh suvlar), diniy turizm(ziyorat, mozorlar), etnografik turizm(milliy urf-odat, an`ana, o'ziga xosliklarni namoyish etish, etnomadaniyat namoyishi uchun namunaviy mahalliy xonadonlar tashkil etish)suv turizmi(turistik bazalarda suniy suv havzalarini tashkil etish, kemada sayr qilishni tashkil etish), ot turizmi( ot va ot qo'shilgan milliy aravalarda Axsikent atrofini aylanish), aerostat turizmi(aerostat yordamida Axsikent atrofini aylanish) kabi turlari yo'lga qo'yilishi taklif etildi.

Shuningdek, direksiyada turizm bo'limi ham tashkil etilib, majmuada turizmni rivojlantirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bo'limga ikki

nafar xalqaro toifadagi turizm mutaxasislari jalb qilindi. Shuningdek, “Gid - ekskursovodlar kursi” tashkil etilib, 35 nafar uyushmagan yoshlar jalb etildi. Ulardan 11 nafari Axsikent majmuasida ish bilan ta’minlandi. Direksiya tomonidan Namangan viloyatida turizmni rivojlantirishning 2020- 2025-yillar ucchun mo‘ljallangan Konsepsiyasi ishlab chiqilgan. 2018-yil 3-5-oktabr kunlari direksiyaning xalqaro sertifikatga ega tuoperatorlari Toshkent shaharida o‘tkazilgan “Buyuk Ipak Yo‘lida Turizm. Toshkent-24” xalqaro turizm yarmarkasida ishtirok etib , 75 nafar mahalliy hamda 35 nafar xorijiy turistik firmalar bilan xalqaro shartnomalar imzoladi.

Prezidentning Namangan viloyatiga tashrifi davomida Axsikent majmua bosh rejasi, uning tadqiqot olib borilgan obyektlari, hududda barpo etiladigan turistik majmua loyihasi haqida ma’lumot berildi. Unga ko‘ra, bu yerda muzey tashkil etiladi. Axsikentning qadimiy dovrug‘ini tiklash maqsadida ramziy darvoza quriladi. Umarshayx Mirzo va Boburning Kamoliddin Behzod chizgan suratlari asosida ularning haykali bunyod etiladi. Sayyohlar uchun Sirdaryo bo‘ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko‘hna shaharni tomosha qilish imkoniyati yaratiladi. Bir so‘z bilan aytganda, zarur infratuzilma, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari qurilib, Axsikent turizm manziliga aylantiriladi.

Axsikent tarixini ilmiy asoslangan holda chuqur o‘rganish, ajdodlarimizning asl o‘tmishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va yosh avlodga singdirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish kerak.

Axsikent – buyuk tariximiz ko‘zgusi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko‘rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o‘tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o‘rgandik, bunday joylarga e’tibor qilmadik. Ma’naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo‘lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg‘aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak. Majmuada qadimiy tariximizni targ‘ib qiluvchi festival o‘tkazish, Namangan davlat universitetida arxeologiya ta’lim yo‘nalishlarini ochish bo‘yicha tavsiyalar berdi. Tarixni tarixiy obyektlarda

o‘qitish, maktab va universitetdagi amaliy mashg‘ulotlar va darslarnig ayrimlarini shu yerda o‘tish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki “Axsikent” yodgorligida tez orada ulkan ishlar boshlanmoqda. Bu kabi ishlar nafaqat madaniy-ma’rifiy merosimizni yuksaltiradi, balki viloyatimiz turizm salohiyatini oshirib uning iqtisodiyotiga ham o‘zning ijobiy ta’sirini o‘tkazadi.

## Xulosa

O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqillikka erishgandan so‘ng ijtimoiy hayotning barcha sohalarida , shu jumladan madaniy meros yodgorliklarini asrab-avaylash sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish zarurati tug‘ildi. Bu, avvalambor , xalqimizning o‘z tarixini bilishga qiziqishi beqiyos darajada ortgani, va ikkinchidan , sovet davriida moddiy madaniy yodgorliklarni ishlab chiqarish obyekti sifatida foydalanilganligi ularga bo‘lgan e’tiborni ortirdi. Har ikki holat ham madaniy meros yodgorliklarini asrab avaylash, bu yerlarda mavjud bo‘lgan tariximizni o‘rganish bilan bog‘liq.

Shuni e’tiborga olish kerakki, istiqlol davriiga qadam qo‘ygan O‘zbekiton bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat va huquqiy davlat barpo etishni o‘z taraqqiyotining strategic yo‘nalishi sifatida belgilab oldi. Demak, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlar huquqiy asosga ega bo‘lishi , barcha ijtimoiy o‘zgarishlar qonun yo‘li bilan amalga oshirilishi kerak edi.

Shundan kelib chiqqan holda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab madaniy meros yodgorliklarini asrab-avaylash sohasining huquqiy asoslarini yaratishga e’tibor qaratildi.

